

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 132 (1731), 2026-yil 2-iyul, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMI EKSPORT SALOHİYATI VA HUDUDLAR RIVOJI UCHUN STRATEGIK AHAMIYATGA EGA

Prezident Shavkat Mirziyoyev transport-logistika tizimini rivojlantirish va mamlakatimizning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning Sharq va G‘arbni bog‘lovchi quruqlikdagi yirik transport xabiga aylanishi uchun keng imkoniyatlar mavjud. Mamlakatimiz hududidan xalqaro ahamiyatga ega 4 ming kilometr tranzit yo‘laklari o‘tadi, 4 ming 700 kilometr temir yo‘l tarmog‘i bor.

Toshkent shahri, Navoiy va Namanganda zamonaviy transport-logistika markazlari va “quruqlik portlari” rivojlanmoqda. Navoiy aeroporti Yevrosiyo havo yo‘laklarida muhim kargo tuguni vazifasini bajarmoqda.

Shu bilan birga, “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish, Transafg‘on temir yo‘li loyihasini jadallashtirish mamlakatimizning mintaqaviy va xalqaro transport tizimidagi o‘rni yanada mustahkamlaydi.

Ushbu yirik loyihalar ishga tushishi natijasida O‘zbekiston Tinch okeanidan Yevropagacha bo‘lgan eng qisqa quruqlik yo‘lagining asosiy bo‘g‘iniga aylanadi. Mazkur yo‘nalish an‘anaviy yo‘nalishlarga nisbatan yuk tashish vaqtini 3 barobargacha qisqartirib, 8 kungacha tushirish imkonini beradi. Shuningdek, Pokistonning Karachi va Gvadar portlari orqali Hind okeaniga, qariyb 2 milliard aholi yashaydigan Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish uchun eng tezkor yo‘l ochiladi.

Taqdimotda mamlakatimizda bu boradagi imkoniyatlardan hali to‘liq foydalanilmayotgani qayd etildi.

Ma‘lumki, Xitoy va Yevropa o‘rtasida yillik tovar aylanmasi 800 milliard dollari,

yuk tashish hajmi esa 120-150 million tonnani tashkil etadi. Agar O‘zbekiston yiliga qo‘shimcha 15-20 million tonna xalqaro tranzit yukini qabul qila olsa, 400-600 million dollar qo‘shimcha daromad, logistika markazlari va terminallar qurilishiga 3 milliard dollar xorijiy investitsiya, 50 mingga barqaror ish o‘rni yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu iqtisodiyot o‘shishiga qo‘shimcha 1,5-2 foizlik sur‘at berishi mumkin.

Biroq hozircha O‘zbekistonning ushbu tranzit aylanmasidagi ulushi 1-2 foizdan oshmayapti. 2025-yilda tranzit yuk tashish hajmi 15,3 million tonnani tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 54 foiz o‘sgan bo‘lsa-da, mavjud salohiyat bundan ancha yuqori.

Tahlillarga ko‘ra, chegara o‘tkazish punktlari ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularning aksariyati xalqaro yuklarni tezkor qabul qilish va rasmiylashtirish quvvatiga ega emas. Mamlakatimizda xalqaro talabga mos 27 ta logistika markazi mavjud bo‘lib, ularning umumiy quvvati 27,2 million tonnani tashkil etadi. Biroq faqat bittasi yuqori toifaga ega. Avtomatlashgan “A” toifadagi omborlar jami ehtiyojning 10-15 foizini qoplaydi, zamonaviy muztlatkichli va bojxona omborlari yetishmaydi.

Shuningdek, logistika markazlari asosan Toshkent shahri va uning atrofida joylashgani, konteynerlashtirish ulushi pastligi, davlat organlari va xususiy logistika markazlari o‘rtasida axborot tizimlari to‘liq integratsiya qilinmagani, sohada raqamlashtirish darajasi yetarli emasligi ko‘rsatib o‘tildi.

Taqdimotda Xonobod va Angren shaharlari, Yangiyo‘l, Ohangaron, Olot va Termiz tumanlarini transport-logistika sohasiga ixtisoslashtirish taklif etildi.

Xonobod shahri “Xitoy yo‘li darvozasi” sifatida Xitoy — Markaziy Osiyo — Kaspiy — Kavkaz — Yevropa, Xitoy — Markaziy Osiyo — Transafg‘on hamda Xitoy — Markaziy Osiyo — Eron tranzit yo‘laklariga xizmat qiladi. Angren shahri, Yangiyo‘l va Ohangaron tumanlari tranzit va tashqi savdo yuklarini oraliq taqsimlash markazlari sifatida rivojlantiriladi.

Olot tumani “O‘rta yo‘lak darvozasi” sifatida Xitoy — Markaziy Osiyo — Kaspiy — Kavkaz — Yevropa hamda Xitoy — Markaziy Osiyo — Eron yo‘nalishlariga, Termiz tumani esa “Transafg‘on yo‘lagi darvozasi” sifatida Xitoy — Markaziy Osiyo — Transafg‘on — Pokiston transport yo‘lagiga ixtisoslashadi.

Ushbu hududlarda logistika markazlari tashkil etmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarga har bir hududda 50 gektardan, jami 300 gektar yer maydoni taklif etiladi. Bu maqsadlar uchun har yili 200 million dollarlik imtiyozli va kam foizli kredit liniyalarini yo‘naltirish nazarda tutilmoqda. Logistika markazlari uchun tashqi infratuzilma byudjet hisobidan barpo etiladi.

Shuningdek, Qibray va Termiz tumanlarida bojxona terminali hamda avtoturargohlar qurish, Xonobod shahrida xalqaro temir yo‘l chegarasi o‘tkazish punktini barpo etish, Yangiyo‘l tumanidagi temir yo‘l stansiyasini

kengaytirish, Ohangaron tumanida “A” toifadagi yirik logistika markazini qurish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Taqdimotda raqamlashtirish va zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi. Logistika markazlarida terminallarni boshqarish va omborni boshqarish tizimini joriy etish, ularni “E-logistika” platformasiga integratsiya qilish, avtotransport vositalarini onlayn kuzatish, avtotransport raqamlarini aniqlash va elektron hisobga olish tizimini yo‘lga qo‘yish taklifi bildirildi.

Chegara o‘tkazish punktlarida “yagona to‘xtash” (one stop) tamoyilini joriy qilish orqali yuklarni rasmiylashtirish jarayonini tezlashtirish zarurligi qayd etildi.

Sohada xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun logistika markazlariga zamonaviy uskunalar, omborxona va yuk o‘rta-tushirish texnikalari, agregat va ehtiyoj qismlarni olib kirishda bojxona boji hamda majburiy sertifikatlash talablarini yengillashtirish taklif qilindi.

Prezidentimiz transport-logistika tizimi mamlakat eksport salohiyati, investitsiyaviy jozibadorligi va hududlar rivoji uchun strategik ahamiyatga ega ekanini ta‘kidladi.

Mutasaddilarga xalqaro transport yo‘laklaridan samarali foydalanish, logistika markazlari tarmog‘ini kengaytirish, sohani raqamlashtirish va xususiy sektor uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN GRUZIYADA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidzening taklifiga binoan 2-3-iyul kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Tbilisi shahrida Gruziya Prezidenti Mixail Kobaxidze bilan muzokaralar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Muzokaralar kun tartibidan O‘zbekiston — Gruziya do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari o‘rin olgan.

Siyosiy muloqotni mustahkamlash, parlamentlararo va hududlararo aloqalarni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish hamda madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirishning amaliy jihatlarini atroflicha muhokama qilinadi.

Tomonlar sanoat, farmatsevtika, kimyo, qishloq xo‘jaligi, turizm, energetika

va axborot texnologiyalari sohalarida kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Shu bilan birga, transport-logistika sohasida hamkorlik qilish hamda mahsulotlar eksporti geografiyasini kengaytirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish masalalari diqqat markazida bo‘ladi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb mavzular yuzasidan ham fikr almashadilar.

Sammit yakunlari bo‘yicha hamkorlikning turli yo‘nalishlarini qamrab oladigan ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plamini imzolash rejalashtirilgan.

O‘zA



O‘ZBEKISTON VA GRUZIYA: TARIXIY DO‘STLIK DAN STRATEGIK HAMKORLIK SARI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-3-iyul kunlari davlat tashrifi bilan Gruziyada bo‘ladi.

O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p asrlik tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalarida izchil rivojlanib bormoqda.

Ikki mamlakatni nafaqat qadimiy savdo yo‘llari, balki o‘zaro hurmat, ishonch

va manfaatlarga asoslangan hamkorlik ham bog‘lab turadi. Keyingi yillarda oliy darajadagi tashriflar, savdo-iqtisodiy aloqalar kengayishi va madaniy muloqotlar faollashuvi ikki davlat munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Davomi 2-beta



Futbol bo‘yicha Jahon chempionati biz uchun tugadi. Ulkan kutilmalar, orzular, g‘alabamizni nishonlashga bo‘lgan mislsiz ishtiyoq qator mag‘lubiyatlar qozig‘iga qoqildi. Muxlislik, vatanparvarlik, kuyinchalik hissi millionlab yuraklarni qurshab oldi. His-hayajonlar jo‘shib, bunday holatda kimdir aybdorlarni qidirsas, boshqalar yupanch ostonasidan joy egalladi.



BIZ, ALBATTA, ULKAN G‘ALABALARGA ERISHAMIZ VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Qablardan tinimsiz otilayotgan hayqiriqlar hali-hamon ummonlarni tashirmoqda. Nega shunday bo‘ldi? Nega biz bu chempionatda muvaffaqiyat bilan yuzlashmadik? Nahotki, biz g‘alabaga loyiq emasmidik? Shu kabi savollar qurshovida yurtdoshlarimizning umidli nigohlari so‘nggi kunlarning beixtiyor hamrohi bo‘ldi.

Ayrimlar Jahon chempionatiga chiqishimizning o‘zi buyuk tarix, futbolchilarimiz borini berib o‘ynadi, desa, boshqalar asosan murabbiy mahoratining yo‘qligi hamda ba‘zi futbolchilarning saviyasini ro‘kach qilib xeytlashtirdi.

Shularni ko‘rganda, o‘ylanib qolarkansan kishi: “Axir kechagina biz terma jamoamizni Jahon chempionatiga chiqqanida ko‘kka ko‘tarib maqtab, g‘urur va iftixor dengizida suzgandik. Nega bugun mag‘lubiyatga duch kelganda qirg‘oqning narigi tomoniga o‘tib, ularga ayovsiz xeytlar yog‘diryapmiz...”.

Kuni kecha Yaponiya terma jamoasi Braziliyaga qarshi tengma-teng kurashib, 1:1 hisobida yakun topayotgan o‘yinining oxirgi soniyalarida qo‘tkazib yuborib, chempionatdagi yurishini to‘xtatdi.

Murabbiydan tortib, futbolchilar va butun yapon xalqi yig‘ladi... O‘ta alamli mag‘lubiyatdan so‘ng murabbiy va futbolchilar stadiondagi ishqibozlar va butun mamlakat xalqidan uzr so‘radi.

Qoyil qolish kerak, yaponlar ko‘z yoshlarini tiya olmasa-da, terma jamoasini yomonlaganini kuzatmaymiz. Kuzatmaymiz ham... Tasanno! Mana millat va xalq yakdilligi, hamjihatligi...

Lekin mag‘lubiyatdan keyin o‘z jamoalarini haqorat va bepisandlik ummoniga g‘arq qilganlar ham bo‘ldi.

Mana Urugvay terma jamoasi futbolchilari aeroportda chipta qidirib sarsan bo‘ldi. Nimaga? Chunki mamlakat futbol federatsiyasi terma jamoa mag‘lubiyatga uchrab, guruh bosqichidan chiqa olmaganidan keyin, ularga atalgan charter reysni bekor qilgani haqidagi xabarlar ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi.

Buni qanday tushunish kerak?

Shuningdek, jahon matbuotida Janubiy Koreya ham guruhdan chiqolmagach, ushbu mamlakat futbol federatsiyasi va terma jamoasi faoliyatini o‘rganish harakatiga tushgani haqida xabarlar chiqa boshladi.

Buyam yondashuvmi?

Xalqimizda “G‘alabaning ming bitta otasi bor, mag‘lubiyat esa hamisha yetim” degan naql yuradi. Haqiqatan, biz birinchi bor ishtirok etgan Jahon chempionati hammamiz uchun sinovli bo‘ldi.

Bunday paytda biz qanday yo‘l tutishimiz kerak degan savol barchamizni qiyinashi turgan gap.

Fransiyalik yirik olim Gyustav Lebon “biyor bir millatning millat sifatida shakllanishi uchun ming yillar kerak”, degan ekan.

Biz — uch ming yillik tarix sohibi bo‘lgan millatimiz, qudratli xalqimiz.

Millatimiz, xalqimizga esa asrlar davomida bag‘rikenglik, vatansevarlik, insonparvarlik kabi olijanob xislatlar xos, albatta.

Alohida ta‘kid qilish kerak, mana shunday onlarda davlatimiz Yetakchisining bu jahon chempionati yakunlariga munosabati juda ko‘pchilikning, xususan, mening ham yuragimga mo‘jizali malham bo‘ldi.

Bu xolis fikr. Buni aytmaslik ham insofdan bo‘lmas.

Yurtida, millatda, xalqning ana shunday mushkul kechmish onlarida juda topib aytilgan so‘zlar, menimcha, hammamizning hovurimizni tushirib, holatga kengroq va chuqurroq qarashga undadi.

“Vatanimiz sharafini himoya qilgan terma jamoamiz a‘zolariga ortiqcha his-tuyg‘u bilan e‘tiroz bildirish, ulardan ayb qidirish xalqimizga xos ish emas. Aksincha, bugun ularni qo‘llab-quvvatlash, ruhini ko‘tarish har qachongidan ham muhim”, dedi Prezidentimiz.

Aynan shunday, jamoamizdan xafa bo‘lish xalqimizga xos ish emas.

AQSHdan qaytgan terma jamoamizning aeroportida tantanali ravishda kutib olinishi ham millatimizning, xalqimizning, har birimizning kim ekanligimizni yana bir bor namoyon etdi, desak buyam ayni haqiqat.

Tan olaylik, matonatli o‘g‘lonlarimiz maydonda borini berib kurashdi. Ularning oyoqlari ham, qalblari ham momataloq bo‘lganini o‘zimiz ko‘rdik.

Hayotdagi haqiqiy g‘olib hech qachon yiqilmaydigan emas, balki har safar yiqilganida yana o‘rman turib, o‘z ustida ishlav oladigan, maqsadi sari kurashishda davom etadigan insondir.

Muvaffaqiyat ortga chekinmaslikda emas, balki qiyinchiliklardan saboq chiqarib, yanada kuchliroq bo‘lib qaytishdadir.

Darhaqiqat, biz bu sinovlardan boshimizni g‘urur bilan ko‘targan holda o‘tamiz. Kamchiliklarimizni to‘g‘rilaymiz.

Biz kuchli bo‘lib qaytamiz. **Biz, albatta, ulkan g‘alabalarga erishamiz — Vatani uchun, millat uchun, xalq uchun!**

Salim DONIYOROV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist



YANGI DAVR TALABI: MAHALLA TIZIMI BOSHQARUV TAYANCHIGA AYLANMOQDA

Mahalla — jamiyatimizning yorug‘ yuzi va vijdoni. Har qanday islohotning real natijasi, eng avvalo, mahalla hayotida aks etadi. Bu fikr bugun O‘zbekistonda balandparvoz gap emas, balki davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishidir.

Mamlakatimiz yetakchisining “Turli sohalarida amalga oshirayotgan islohotlarimizning natijalari, yurtimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar samarasi, avvalo, mahallalarda, u yerdahashayotgan odamlarning kayfiyatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, mahallani jamiyatimizdagi barcha jarayonlarni tiniq aks ettiradigan

o‘ziga xos ko‘zguga qiyoslash mumkin”, degan qat’iy pozitsiyasi yangi O‘zbekistonda mahalla tizimiga e‘tiborning amaliy namunasidir. Darhaqiqat, mahalla instituti bugun xalq va davlat o‘rtasidagi eng ishonchli tuzilmaga aylandi.

Davomi 3-beta

O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi madaniy munosabatlar boy an‘analarga ega. Mamlakatlar muntazam ravishda kino kunlari, madaniy festivallar, ilmiy va ta‘lim sohasidagi tadbirlarni tashkil etib kelmoqda.

O‘ZBEKISTON VA GRUZIYA: TARIXIY DO‘STLIKDAN STRATEGIK HAMKORLIK SARI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1994-yil 19-avgust kuni o‘rnatilgan. Shundan buyon ikki tomonlama siyosiy muloqot izchil rivojlanib kelmoqda. 1995-yil sentabrda o‘zaro munosabatlarning asosiy huquqiy hujjati hisoblangan Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi.

So‘nggi yillarda davlat va hukumat rahbarlari o‘rtasidagi muntazam uchrashuvlar siyosiy ishonchni yanada mustahkamladi. Ayniqsa, 2022-2025-yillarda ikki mamlakat Prezidentlari darajasidagi muzokaralar, Bosh vazirlarning o‘zaro rasmiy tashriflari, hukumatlararo komissiya yig‘ilishlari hamda Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlar hamkorlikka yangi sur‘at bag‘ishladi.

2025-yil 5-mart kuni davlatimiz rahbari mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Gruziya Bosh vaziri Irakli Kobaxidze boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport-logistika, turizm va madaniyat sohaslaridagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Parlamentlar va hukumatlar darajasidagi aloqalar faollashgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Parlamentlararo hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda. Oliy Majlisda Gruziya parlamenti bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruh faoliyat yuritadi. Gruziya vakillari O‘zbekistonda o‘tkaziladigan Prezident va parlament saylovlarida xalqaro kuzatuvchi sifatida muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Ikki mamlakat o‘rtasida erkin savdo rejimi amal qiladi. Bu esa tovar ayirboshlash hajmi muttasil o‘shishiga xizmat qilmoqda.

So‘nggi besh yil ichida tovar ayirboshlash hajmi ikki yarim baravar oshdi, qo‘shma korxonalar soni va yuk aylanmasi ko‘paydi.

Mamlakatimizda gruziyalik investorlar ishtirokida tashkil etilgan raqamli bank faoliyat yuritmoqda.

2025-yil iyun oyida Tbilisi shahrida “Made in Uzbekistan” milliy ko‘rgazmasi tashkil etildi. Unda to‘qimachilik, elektrotexnika, farmatsevtika, oziq-ovqat, mashinasozlik va boshqa sohalardagi yuzdan ortiq yetakchi o‘zbek korxonasi ishtirok etdi.

Ikki mamlakat hamkorligida tranzit va transport-logistika masalalari alohida o‘rin tutadi. Joriy yil iyun oyida Gruziya-ni Axalkalaki shahrida yangilangan Boku — Tbilisi — Kars temir yo‘lining rasmiy ochilish marosimi o‘tkazildi. Istiqbolda mazkur transport yo‘lagining bunyod etilayotgan “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li bilan uyg‘unlashuvi mamlakatlarimizning tranzit salohiyati yanada oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi madaniy munosabatlar boy an‘analarga ega. Mamlakatlar muntazam ravishda kino kunlari, madaniy festivallar, ilmiy va ta‘lim sohasidagi tadbirlarni tashkil etib kelmoqda.

O‘tgan yili Tbilisi shahrida O‘zbekiston madaniyati va kinosi kunlari, joriy yilda

esa Toshkent shahrida Gruziya madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Poytaxtimizning markaziy ko‘chalaridan biriga taniqli gruzin shoiri Shota Rustaveli nomi berilgani va haykali qo‘yilgani ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar mustahkamligidan dalolat beradi.

2025-yilda Tbilisi shahri kengashi qaroriga muvofiq, Gruziya poytaxtidagi istirohat bog‘laridan biri buyuk o‘zbek mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy nomi bilan ataldi. Bu ikki xalqning bir-birining tarixi va madaniyatiga yuksak hurmatining yorqin ifodasi bo‘ldi.

Bugungi kunda Toshkent — Tbilisi hamda Toshkent — Batumi yo‘nalishlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar borligi sayyohlik va ishbilarmonlik aloqalarini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda to‘rt mingga yaqin gruzin istiqomat qiladi. 1994-yildan buyon Toshkent shahrida “Megobroba” (“Do‘stlik”) gruzin milliy madaniy markazi faoliyat yuritib kelmoqda.

O‘zbekiston va Gruziya xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar ildizi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Antik mualliflar Xorazm bilan Kolxida o‘rtasida Amudaryo va Kaspiy dengizi orqali savdo aloqalari mavjud bo‘lganini qayd etgan.

Buyuk ipak yo‘li shakllanganidan keyin, ayniqsa, VI asrdan boshlab Samarqand, Buxoro va Xorazm orqali Kavkaz hamda Vizantiyaga olib boruvchi muhim savdo yo‘nalishi vujudga keldi. Shota Rustavelining XII asrda yaratilgan mashhur “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonida ham Xorazm tilga olinadi. Bu esa o‘rta asrlardagi Gruziya bilan Markaziy Osiyo o‘rtasida chuqur tarixiy, madaniy va savdo aloqalari mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

Keyinchalik ham gruzin millatiga mansub shaxslar O‘zbekiston hayotida faol ishtirok etgan. Ular orasida tadbirkorlar, me‘morlar, olimlar, san‘atkorlar va shifokorlar bo‘lgan. Toshkentdagi mashhur “Kolizey” teatrini qurdirgan tadbirkor Georgiy Sinsadze, O‘zbekiston arxeologiya fani rivojiga ulkan

hissa qo‘shgan akademik Eduard Rtveladze kabi shaxslar ikki xalq do‘stligining yorqin timsollari hisoblanadi.

Ayniqsa, akademik Eduard Rtveladzening O‘zbekiston tarixi va Buyuk ipak yo‘lini o‘rganishga bag‘ishlangan yuzlab ilmiy ishlari, Surxondaryodagi qadimgi shahar o‘rmini aniqlashdagi mehnatlari jahon ilmfanida katta voqea sifatida e‘tirof etilgan.

Bugungi murakkab xalqaro sharoitda O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro ishonch, ochiq muloqot va amaliy hamkorlik asosida izchil rivojlanmoqda. Davlat rahbarlarining siyosiy irodasi, faol iqtisodiy va gumanitar aloqalar, boy tarixiy meros o‘zaro manfaatli sheriklikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shubhasiz, bunday keng ko‘lamli aloqalar, turli uchrashuv va muloqotlar kelgusida savdo, transport, investitsiya, turizm, madaniyat va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytirish uchun mustahkam asos yaratadi.

“Dunyo” AA

Har yili 30-iyun kuni davlatimiz rahbari yoshlar bilan muloqot qiladi. Yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlab, ular uchun imtiyoz va imkoniyatlarni yaratib beradi. Xususan, sport sohasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, faxrimiz sanalgan futbol jamoamizning jahon chempionatida ishtirok etishi barchamiz uchun olamshumul voqeaqa aylandi.



Nodirbek ALIMBOYEV, To‘rtko‘l tumani “Ullubog‘” ovul fuqarolar yig‘ini yoshlar yetakchisi, “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohibi

To‘rtkul tumani “Ullubog‘” ovul fuqarolar yig‘inida 2022-yildan buyon yoshlar yetakchisi sifatida ishlayman. Mahalla yoshlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bandligini ta‘minlash, bo‘sh vaqtini



ONA YURTINGA XIZMAT QILISHGA DOIM TAYYORMAN

mazmunli tashkil etish, huquqbuzarlik va turli salbiy illatlarning oldini olish borasida tizimli va manzilli ishlarni yo‘lga qo‘yganimiz.

So‘zimni sport mavzusi bilan boshlagan edim. Tumanimizda ham sportga e‘tibor juda yaxshi. Sport maktabi bilan yaqindan hamkorlik qilib, mahalladagi iqtidorli yoshlarni aniqlash va sportga keng jalb etish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida tinimsiz ishlayapmiz. Aslida, o‘zim ham sportchiman. Yosh sportchilar bilan turli darajadagi musobaqalarda munosib natijalarga erishib kelmoqdamiz. Jumladan, 2022-yilda futbol bo‘yicha DXX raisi kubogi musobaqasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan bo‘lsak, “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida voleybol bo‘yicha 22-30 yoshli qizlar o‘rtasida O‘zbekiston A ligasida

faxrli 3-o‘rinni qo‘lga kiritdik. 2024-yilda futbol bo‘yicha DXX raisi kubogi musobaqasida To‘rtko‘l tumani bosqichida g‘olib bo‘ldik. 2025-yilda ayni shu musobaqaning Qoraqalpog‘iston bosqichida 2-o‘rinni egalladik.

2025-yilda “Yilning eng namunali mahalla yoshlar yetakchisi” tanlovining O‘zbekiston Respublikasi bosqichida “Yoshlar daftari” tizimida samarali ish tashkil etgan eng namunali mahalla yoshlar yetakchisi yo‘nalishi bo‘yicha 1-o‘rinni egalladim. 2025-yil yakuni bo‘yicha 4-chorak natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston miqyosida 100 ta eng yaxshi yoshlar yetakchisi qatoridan joy oldim.

Kamtarona mehnatlarim inobatga olinib, “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlandim. Albatta, bundan g‘ururlanaman. Kelajak rejarlarim bisyor. Eng asosiysi, vatanimga, ona yurtinga xizmat qilishga doim tayyorman.



Qudratbek MAHAMMADJONOV, Farg‘ona davlat texnika universiteti magistranti, “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohibi

g‘ururlanaman, shu bilan birga, daxldorlik, mas‘uliyatni his qilaman. Yurtimizda iqtidorli yoshlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ularni, eng avvalo, hech ikkilanmasdan harakat qilishga chorlayman. Ko‘pchilikning g‘oyasi bor, lekin “ishlamasa-chi?” degan qo‘rquv ularni to‘xtatib qo‘yadi. Men o‘zim ham har bir xatodan saboq olib, oldinga intilishda davom etishga harakat qilaman. Shuningdek, jamoa bo‘lib ishlash, bilim va mahoratni boshqalar bilan baham ko‘rish muhim hisoblanadi. Yolg‘iz erishilgan g‘alaba uzoqqa bormaydi.

Magistraturani yakunlab, ilmiy faoliyatimni davom ettirishni rejalashtiryapman. Shu bilan birga, “Startap markazi” orqali yana ko‘proq talaba va yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlab, ularning g‘oyalari real loyihalarga aylantirishga yordam beraman. Asosiy maqsadim — ilm-fan yutuqlarini xalqimiz farovonligi yo‘lida xizmat qildirish.

MUVAFFAQIYAT FORMULASI

30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimiz yoshlarimiz bilan uchrashuv o‘tkazdi. Bu ezgu an‘ana, shubhasiz, davlat va yoshlar o‘rtasidagi ishonch, hamkorlik va mas‘uliyatga asoslangan ijtimoiy shartnomaning ramziy ifodasi, yangi O‘zbekiston kelajagini yoshlar bilan birgalikda barpo etish g‘oyasining amaliy tasdig‘idir. Negaki yoshlar — ertamiz umidi, egalari. Ularning fikri, tashabbusi va intilishlariga davlat siyosati darajasida alohida ahamiyat berish, zarur imkoniyat va sharoit bilan birga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq, yo‘nalish berish ham muhim.



Abduxoliq TASHANOV, Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari doktori

Uchrashuvda davlatimiz rahbari “Bugungi kunning muvaffaqiyat formulasi, ertangi taraqqiyotning mustahkam zaminini uchta eng muhim ustunga tayanadi. Bu — bilim, kasb va texnologiya! Mening niyatim — har bir yig‘it-qiz ana shunday imkoniyatga ega bo‘lib, hayotda munosib o‘rmini topsin”, deya zamonamiz yoshlari uchun eng dolzarb, zaruriy jihatlarni ko‘rsatib o‘tdi.

Aslida, Prezidentimiz ko‘zda tutgan bilim, kasb va texnologiya uyg‘unligi zamonaviy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biridir. Bilim insonning intellektual salohiyatini shakllantirsa, kasb amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, texnologiya esa mazkur bilim va ko‘nikmalarni yuqori samaradorlik bilan qo‘llash imkonini beradi. Shuning uchun bugun dunyo intilayotgan va qo‘llayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh davlatlar aynan ilm-fan, innovatsiya va yuqori malakali kadrlarga tayanadi.

Yangi O‘zbekiston yoshlari mazkur jarayonning asosiy ishtirokchilari va bevosita harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ularni zamonaviy kasblarga tayyorlash, dasturlash, sun‘iy intellekt, robototexnika, kibernetika va boshqa texnologiyalar bilan ta’minlash, kasb va bilimni o‘zaro bog‘laydigan har bir qadamda ularning qatnashishi muhim. Shuning uchun bugun dunyo intilayotgan va qo‘llayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh davlatlar aynan ilm-fan, innovatsiya va yuqori malakali kadrlarga tayanadi.

Prezidentimiz bu boradagi fikrlarini davom ettirar ekan, bugungi “bilimlar iqtisodiyoti” xususida so‘z yuritib, jumladan, **“Bilinglar, endi davlatlar hududi bilan emas, bilimi bilan, aholi soni bilan emas, texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas, inson kapitali bilan raqobatga kirishmoqda. Bilim, ilm-fan va tafakkur mahsuli bo‘lgan yangi “bilimlar iqtisodiyoti” hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda**”, deya uqtirdi.

Darhaqiqat, mamlakatning haqiqiy boyligi yer osti boyliklari emas, balki uning ilmiy, sog‘lom, tashabbuskor va raqobatbardosh fuqarolaridir.

Davlatimiz rahbarining ushbu g‘oyasi yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ham asosiy falsafasini tashkil etadi. Mamlakatimizda ta‘lim sifatini oshirish, yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish, sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ilm-fan va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar aynan inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilyapti.


Buning natijasida yoshlar nafaqat mehnat bozorida raqobatlasha oladigan mutaxassislarga, ayni vaqtda yangi texnologiyalar, innovatsion mahsulotlar va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi shubhasiz. Demak, mazkur ibora har bir yosh uchun bilim olish, o‘z ustida muntazam ishlash, zamonaviy texnologiyalarni egallash va intellektual salohiyatni rivojlantirish mamlakat taraqqiyoti va xalqaro raqobatbardoshligining ham eng muhim sharti ekanini anglatadi.

Yuksak ishonch va e‘tiroflar esa navqiron avlod vakillarini yanada ruhlantirib, dadil olg‘a qadam bosishga undashi tayin. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining yoshlarimizga qaratgan “Men bilaman, o‘g‘il-qizlarimizning har birida katta salohiyat bor, iste‘dod bor, iqtidor bor. Sizlar o‘z davrida buyuk kashfiyotlari bilan dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan, Birinchi va Ikkinchi Renessansning “aql chirog‘i” bo‘lgan buyuk ajdodlarimizning munosib vorislarisiz. Albatta, vorislik faqat faxrlanish emas, vorislik bu ulkan mas‘uliyat hamdir!” degan so‘zlari shu yurtga, ona vatanimizga daxldorlik hissi bilan yashayotgan har bir o‘g‘il-qizni to‘lqinlantirgan, qo‘shimcha kuch-g‘ayrat bag‘ishlagan bo‘lsa ajab emas.

Ajdodlarimiz o‘z davrida matematika, tibbiyot, astronomiya, falsafa va adabiyot sohaslarida insoniyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgani bilan hamisha haqli ravishda faxrlanamiz. Ularning avlodlari, ma‘naviy izdoshlari bo‘lgan bugungi yangi O‘zbekiston yoshlari esa raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, muhandislik, startaplar va ilmiy tadqiqotlar orqali ana shu ma‘rifiy merosni zamonaviy mazmun bilan boyitish imkoniga ega.

Shu ma‘noda, ularning vazifasi buyuk ajdodlar merosini faqat o‘rganish emas, balki ularni yangi ilmiy kashfiyotlar, innovatsion yechimlar va intellektual yutuqlar bilan davom ettirib, Uchinchi Renessansning asosiy bunyodkorlariga aylanishdan iborat. Ana shunda xalqimizning azaliy orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari ushaladi — O‘zbekiston jahondagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shiladi, xalqimiz yana dunyo nigohini o‘ziga qaratadi, madaniyati, ma‘naviyati va dahosi bilan jahon xalqlariga saboq beradi. Ishonamizki, ko‘zlarida o‘t, yuragida olov yonib turgan, tomirida shiddat oqib, zehni kun sayin charxlanayotgan, eng muhim, o‘ziga ishonchi yuqori bu yoshlar bilan ana shu kunlar albatta yaqin.

“Mahalla yettilligi” xodimlari mehnatiga ularning erishgan real natijalari (KPI) asosida baho berish tizimi joriy etiladi. Mahalla raisi xodimlarning oylik ish vaqtini ularning amaliy faolligiga qarab belgilaydi va bu fidoyi xodimlarni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.



Sharh

“**Prezidentimiz Mahallalar faoliyatini rag‘batlantirish jamg‘armasiga respublika budjetidan 2026-yildan boshlab har yili 200 milliard so‘m ajratilishini belgiladi.**”

Inson taqdiri va tarbiya mas’uliyati

Bugun mahalla tizimidagi islohotlarning tayanch nuqtasi inson qadri, uning taqdiri va ertangi kunga ishonchdir. Yangi tartibga ko‘ra, mahallada yashovchi, birinchi marotaba ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan fuqarolarga, ularning oilaviy sharoiti hisobga olinib, fuqarolar yig‘ini kengashi qarori asosida yengillik berish tizimi joriy etilmoqda. Sud-tergov organlari mahallaning ushbu murojaatini qanoatlantirgan taqdirda, asosiy e‘tibor jazolashga emas, balki shaxsni tarbiyalash va uni sog‘lom muhitga qaytarishga qaratiladi.

Bu jarayonda eng katta mas’uliyat yuki, o‘z navbatida, “mahalla yettilligi” zimmasiga tushadi. Ular kafillikka olingan shaxsni shunchaki nazorat qilibgina qolmay, fuqaroning qayta tarbiyalanishi, kasb-hunar o‘rganishi, ta’limga yo‘naltirilishi va bandligi ta’minlanishi uchun bevosita javobgar bo‘ladi. Zero, jinoyatga qo‘l urgan shaxsni jamiyadan ajratish emas, balki uning ma’naviy dunyosini o‘zgartirish, oiladagi muhitni sog‘lomlashtirish va foydali mehnatga jalb qilish orqali to‘g‘ri yo‘lga solish eng samarali tarbiya usulidir.

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “O‘lijanon kishilar uzmi qabul qilar”, deb ta’kidlaganidek, xalqimiz azal-azaldan mardligi, tantiligi va o‘lijanoblighi bilan boshqalardan ajralib turgan. Bir so‘z bilan aytganda, xatosini anglab, chin dildan pushaymon bo‘lgan, jamiyatga qaytmog‘chi bo‘lgan insonga imkon berish milliy qadriyatlarimizga xos an’anadir. Shu bois, islohotlarning pirovard maqsadi ham adashganlarni jazolash emas, balki ularni kechirish, to‘g‘ri yo‘lga solish, birini o‘qimishli, birini ishli, birini kasbli qilishdan iboratdir.

Insonni tarbiyalash — uzoq muddatli va tizimli mehnatni talab etadigan jarayon. Shu sababli mahallada kafillikka olingan shaxs uch yil davomida qayta jinoyat va huquqbuzarlik sodir etmasa, shaxs tarbiyasida alohida jonbozlik ko‘rsatgan mahalla faollarini Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha rag‘batlantirish ko‘zda tutilmoqda. Bunday rag‘bat tizimining joriy etilishi mahalla faollarining tarbiya masalasiga shunchaki xizmat vazifasi sifatida emas, balki yuksak ijtimoiy mas’uliyat bilan yondashishini ta’minlaydi.

“Raqamli mahalla” platformasi: tizimli muammolarga aniq yechimlar

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Biz oldimizga qo‘ygan ulug‘vor maqsadlarga erishish yo‘lida eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizga

YANGI DAVR TALABI: MAHALLA TIZIMI



BOSHQARUV TAYANCHIGA AYLANMOQDA

raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish hamda inson taraqqiyotiga xizmat qiladigan ilg‘or g‘oyalarni o‘zlashtirishga qaratilgan pragmatik siyosatimizni izchil davom ettiramiz”.

Bugun mahalla tizimi mazmunini aynan shunday zamonaviy yondashuvlar belgilab bermoqda. Aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun tizimda keng ko‘lamli raqamli islohotlar kechmoqda. Jumladan, farmonga asosan, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Adliya hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan 2026-yil 1-noyabrga qadar “Raqamli mahalla” elektron platformasining yangi imkoniyatlari ishga tushirilishi belgilandi.

Yangi tizimga ko‘ra, aholidan kelib tushgan murojaatlar sun‘iy intellekt yordamida, inson omilisiz saralanib, to‘g‘ridan to‘g‘ri mas’ul ijrochilarga taqsimlanadi. Bu jarayon masalalar xaspo‘shlanishining oldini oladi.

Shu bilan birga, infratuzilma, bandlik, jinoyatchilik ko‘rsatkichlari va nizoli oilalar ahvoli asosida mahallalar real vaqt rejimida “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratiladi. Bunday tasnif qaysi hududga birinchi bo‘lib ko‘mak va mablag‘ yo‘naltirish kerakligini aniq ko‘rsatib beradi, eng muhimi, muammolar amalda bartaraf etilishini ta’minlaydi.

Shuningdek, “mahalla yettilligi” xodimlari mehnatiga ularning erishgan real natijalari (KPI) asosida baho berish tizimi joriy etiladi. Mahalla

raisi xodimlarning oylik ish vaqtini ularning amaliy faolligiga qarab belgilaydi va bu fidoyi xodimlarni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Xizmatlar raqamlashishi xodimlar va aholi o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlab, mahallaning jamiyatdagi nufuzini yanada yuksaltiradi.

Yechim ham, javobgarlik ham bo‘ladi

“Raqamli mahalla” platformasi orqali tizimli kamchiliklar shunchaki aniqlanmaydi, balki ularning yechimi ham ta’minlanadi. Farmon bilan platformaga kiritilgan har bir masala ijrosi ustidan qat’iy, vertikal nazorat tizimi o‘rnatilmoqda. Endilikda aholining mahalla darajasida ko‘tarilgan muammolari hal etilishi uchun bosqichda doimiy ravishda tanqidiy tahlil qilib boriladi.

Birinchi bosqichda har oyda kamida bir marotaba tuman va shahar hokimlari raisligida mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlarida eng quyi bo‘g‘indagi muammolar sarhisob qilinadi. Bu joylardagi rahbarlarning kundalik faoliyatiga aholi tomonidan beriladigan eng birinchi va eng xolis baho bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda har chorakda kamida bir marta Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari raisligida hududiy mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlarida muhokama qilinadi.

Bu esa tuman darajasida paysalga solingan yoki mas’uliyatsizlik oqibatida hal etilmay qolgan tizimli kamchiliklarni viloyat miqyosida tezkor bartaraf etish imkonini beradi.

Uchinchi bosqichda nazoratning eng yuqori nuqtasi sifatida har yarim yilda kamida bir marotaba O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri raisligida Respublika mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashi yig‘ilishi o‘tkaziladi. Unda barcha mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlari hamda hokimlar ishtirokida surunkali tus olgan muammolar tanqidiy muhokama qilinib, qat’iy choralar ko‘riladi.

Bunday uch bosqichli tizim shuni anglatadiki, mahalla darajasida ko‘tarilgan muammo toki o‘z yechimini topmaguniga qadar kun tartibidan tushmaydi. Rahbarlarning hisobotlari shunchaki quruq raqamlar bilan emas, platformadagi real ko‘rsatkichlar bilan solishtiriladi.

Yangi moliyaviy manbalar

Mahallalardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tezkor va samarali hal etish, avvalo, tizimning moliyaviy mustaqilligiga bog‘liq. Shu bois, yangi tartibga muvofiq, Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirishning mutlaqo yangi va mahallaning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha manbalari belgilanmoqda.

Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi aniq va muqim manbalar hisobidan kengaytiriladi.

2026-yil 1-iyuldan boshlab mahalla hududida sanitariya qoidalarini buzganlik va noqonuniy qurilish bo‘yicha undirilgan jarimalarning 10 foizi to‘g‘ridan to‘g‘ri mahalla jamg‘armasiga o‘tkaziladi. Bu mahalla hududi tozaligi va tartibi uchun ichki nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2027-yil 1-yanvardan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 15 foizi ushbu jamg‘armaga yo‘naltiriladi. Bu aholining soliq to‘lash madaniyatini oshirish bilan birga to‘langan soliqlar aynan o‘sha mahallaning yo‘li, chirog‘i yoki boshqa ehtiyojlari uchun ishlatilishini anglatadi.

Mahalladagi hududi 5 ming metr kvadratkacha bo‘lgan davlat ko‘chmas mulk obyektlari hokim yordamchisining onlayn buyurtmanomasi asosan to‘g‘ridan to‘g‘ri elektron onlayn auktsion savdolar orqali sotiladi. Ushbu savdolaridan keladigan mablag‘lar (baholash va sotish xarajatlari chegirilgan holda) to‘liq jamg‘armaga tushadi.

Mablag‘larni shakllantirishning bunday tizimi “mahalla yettilligi” va fuqarolar yig‘iniga nafaqat moliyaviy imkoniyat beradi, balki ularda o‘z hududidagi bo‘sh turgan resurslardan samarali foydalanish, tartib-intizomni saqlash va mahalliy byudjetni to‘ldirishga nisbatan tadbirkorlik yondashuvini shakllantiradi. Eng muhimi, mahalla o‘z muammosini yuqori idoralardan mablag‘ kutmasdan, o‘zida shakllangan moliyaviy kuch bilan hal etish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Umuman olganda, bugun mahalla yirik iqtisodiy loyihalar, tadbirkorlik va investitsiyalar generatoriga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, har bir mahallaning o‘ziga xos “drayver” sohalari, tabiiy, iqlim va dehqonchilik sharoitlari, shuningdek, aholining an’anaviy hunarmandlik ko‘nikmalaridan kelib chiqib, tijorat banklari bilan hamkorlikda yangicha tizim yo‘lga qo‘yilmoqda. Endilikda banklar mahallalarga shunchaki kredit beruvchi tashkilot sifatida qolmay, balki aholining biznes tashabbuslari va istiqbolli investitsiya loyihalari portfelini shakllantiruvchi asosiy strategik sherik sifatida kirib bormoqda.

Bunday yondashuv mahalladagi har bir qarich yerni, mavjud infratuzilma va imkoniyatlarni aniq ish o‘rni hamda barqaror daromad manbaiga aylantirishga xizmat qiladi. Natijada hududlardagi ishsizlik va kambag‘allik masalalari mahallaning o‘zida hal etiladi.

Alohida ta’kidlash kerak, Prezidentimiz Mahallalar faoliyatini rag‘batlantirish jamg‘armasiga respublika budjetidan 2026-yildan boshlab har yili 200 milliard so‘m ajratilishini belgiladi.

Inson mahallada tug‘ilib, voyaga yetadi, salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi, shaxs sifatida kamol topadi, uning orzu-umidlari bir butunlikda namoyon bo‘ladi. Yangi tizim va moliyaviy imkoniyatlar zamirida faqatgina iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki adashgan insonni oilasi bag‘riga qaytarish, umidsizlikka tushgan xonadonga nor olib kirish va har bir fuqaroga davlatning mehri va adolatini ko‘rsatishdek oliy maqsad mujassam.



Ortga qaytmas islohotlar

Tadbirkorlik faoliyatimni 2019-yilda boshlagimman. O‘sha vaqtda oldimizga qo‘ygan eng katta maqsadimiz Sirdaryoda zamonaviy tekstil korxonasini barpo etish, yurtdoshlarimiz uchun munosib ish o‘rinlari yaratish va mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxtani yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotga aylantirish edi.



Durbek ABDURAHMONOV, “Poli tex Sirdaryo” MCHJ rahbari

Har bir ishchi ortida bir oila, bir umid, bir kelajak turibdi. Shuning uchun korxona rahbari sifatida o‘zimni nafaqat ishlab chiqarish, balki insonlar taqdiri uchun ham mas’ul deb bilaman.

Korxonamizda yiliga 200 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Bugun mahsulotlarimiz Xitoy, Bangladesh, Turkiya va Rossiya kabi yirik bozorlarga eksport qilinib, yillik

eksport hajmi 10 million dollarni tashkil etmoqda. Bunday natijaga erishish oson emas. Xalqaro bozor sifat, intizom va doimiy yangilanishni talab qiladi. Agar bir kun izlanishdan to‘xtasangiz, raqobatda ortda qolishingiz mumkin.

So‘nggi yillarda tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qabul qilinayotgan qarorlar bizga yanada katta rejalar tuzish imkonini beryapti. Xususan, 2025-yilda ip-kalava eksporti bo‘yicha 5 sentlik eksport yig‘imini kamaytirish bo‘yicha taklifimiz inobatga olingani sohamiz uchun juda muhim qaror bo‘ldi. Bu kabi amaliy yechimlar ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda korxonamizda mato to‘qish, bo‘yash va pardozlashni o‘z ichiga olgan zamonaviy ishlab chiqarish majmuasi qurilyapti. Uni joriy yilning to‘rtinchi choragida ishga tushirishni rejalashtirganmiz. Bu loyiha amalga oshgach, mahsulotni xomashyo sifatida emas, balki tayyor va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulot sifatida eksport qilish imkoniyati yanada kengayadi. Natijada eksport hajmini 30 million dollarga yetkazishni maqsad qilganmiz.

Ishlab chiqaruvchi sifatida biz uchun yana bir muhim masala — elektr energiyasi tannarxi hisoblanadi. Bugungi kunda elektr energiyasi narxi 1 kilovatt-soat uchun qariyb 1200 so‘mga yetgan. Bu bilan yirik ip-kalava ishlab chiqaruvchi korxonalarning oylik elektr energiyasi xarajatlari



oshib ketmoqda. Shuningdek, mahsulot tannarxiga jiddiy ta’sir qilib, tashqi bozorlarda raqobat qilish imkoniyatlarini kamaytirmoqda.

Shu bois, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni strategik yo‘nalish deb bilamiz. Korxonamizda 5 MVt quvvatli quyosh elektr stansiyasini qurish bo‘yicha

ruksat olingan va loyiha ustida ish olib borilmoqda. Ammo menimcha, aynan eksportbop mahsulot ishlab chiqarayotgan tekstil korxonalari uchun davlat kafolati asosida 10 MVtgacha bo‘lgan quyosh elektr stansiyalarini amalga oshirish imkoniyati yaratilsa, bu nafaqat tadbirkorlarga, balki butun iqtisodiyotimizga katta foyda keltiradi.

Yana bir taklifim bor. Agar korxonalar quyosh panellari orqali ishlab chiqargan ortiqcha elektr energiyasini davlat belgilagan tartibda qabul qilib, uni korxonaning tarmoqdan olgan elektr energiyasi bilan o‘zaro hisob-kitob qilish mexanizmini joriy etsa, har ikki tomon uchun ham manfaatli bo‘ladi. Masalan, biz, tadbirkorlar ortiqcha elektr energiyasini amaldagi tarifga nisbatan 30 foiz arzonroq narxda — taxminan 750 so‘mdan tarmoqqa berishga tayyormiz. Bu davlat uchun qo‘shimcha generatsiya quvvatini yaratadi, tadbirkor uchun esa energiya xarajatlari kamaytiradi. Eng muhimi, mahsulot tannarxi pasayadi, eksport salohiyati ortadi va mamlakatimiz tekstil sanoatining xalqaro raqobatbardoshligi yanada mustahkamlanadi.

Zero, kuchli iqtisodiyot davlat va tadbirkorning o‘zaro ishonchi bilan quriladi. Tadbirkor ertangi kunga ishonsa, u sarmoya kiritadi, ishlab chiqarishni kengaytiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va eksportni oshiradi.

Biz ham bugun aynan shu yo‘ldan boryapmiz. Maqsadimiz faqat o‘z korxonamizni rivojlantirish bo‘lib qolmay, mamlakatimiz iqtisodiyotiga munosib hissa qo‘shish, yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar nufuzini jahon bozorlarida yanada yuksaltirishdir. Bu yo‘lda mehnat qilish, izlanish va iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shish biz uchun ham katta mas’uliyat, ham yuksak sharaftir.

2026-yil 2-iyul, 132-son

Kun mavzusi

AHOLI VA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISH



O‘ZBEKISTON AHOLISI SONI 39 MILLIONDAN OSHGAN

Joriy yil boshida mamlakatimiz bo‘lyab aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish umummilliy tadbiri o‘tkazilgandi. Mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor tashkil etilgan mazkur yirik tadbir yurtdoshlarimizda katta qiziqish uyg‘otib, ro‘yxatdan o‘tish talablariga jiddiy va mas‘uliyat bilan yondashganlariga ham guvoh bo‘ldik. Ko‘pchilik tadbirning ahamiyati, yurtimizga oid statistik raqamlarni aniq shakllantirish, ishonchli va zamonaviy ma‘lumotlar bazasini yaratishda muhim ekanini yaxshi angladi. Hatto jarayondan so‘ng mavjud raqamlar mutlaqo o‘zgarishi yoki yangilanishi mumkinligi ham taxmin qilingandi.

Umummilliy ro‘yxatga olish tadbirining dastlabki natijalari e‘lon qilindi



davlatlarda ham e‘tirof qilinmoqda. Hattoki bu boradagi O‘zbekiston amaliyoti eng yaxshilardan biri ekani aytilyapti. Bunda, albatta, bizga yaqindan ko‘maklashgan xalqaro hamkorlar, xususan, BMTning O‘zbekistondagi doimiy koordinatori ofisi, BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi, Jahon banki, Xalqaro migratsiya tashkilotining ham hissasi katta.

Bir so‘z bilan aytganda, uzoq kutilgan hamda yuqori tayyorgarlik ko‘rilgan aholi va qishloq xo‘jaligini umummilliy ro‘yxatga olish tadbiri yurtimizda muvaffaqiyatli yakunlandi. Salkam ikki oy — 15-yanvardan 28-fevralga qadar davom etgan tadbir mamlakatimiz hayotidagi tarixiy voqeikka aylanib, xalqimiz va xorij maydoni diqqat markazida bo‘ldi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, jarayonda umumiy aholining 97,3 foizi ro‘yxatga olingan bo‘lsa, 2,7 foizi turli sabablarga ko‘ra ro‘yxatga olish jarayonlarida qatnashmagan. Ammo bu xalqaro me‘yorlar

bo‘yicha normal bo‘lib, turli davlatlarda 10 foiz va undan yuqori holatlar ham kuzatilgan.

Bir qarashda bular oddiy raqamlar, odatdagi statistika. Ammo to‘plangan ma‘lumotlarning har biri jamiyat hayotidagi muhim jarayonlarni aks ettiradi. Masalan, ular aholi soni va tarkibi, hududlar bo‘yicha joylashuvi, uy xo‘jaliklari va yashash sharoitlari, ta‘lim, bandlik va migratsiya jarayonlari, shuningdek, qishloq xo‘jaligi resurslari va faoliyati to‘g‘risida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ushbu ma‘lumotlar mamlakatning bugungi qiyofasini xolis aks ettiradigan, jamiyat ehtiyojlarini aniq ko‘rsatadigan va kelajakdagi qarorlar uchun ishonchli yo‘nalish beradigan strategik axborot manbaidir.

Shu bois, statistik ma‘lumotlar aniq, shaffof va ishonchli bo‘lishidan har birimiz manfaatdormiz. Har holda bugun o‘zimiz ham statistika deganda ko‘r-ko‘rona e‘lon qilinadigan raqamlar emas, aniq

hisoblangan ma‘lumotlar bazasini tasavvur qilib, ba‘zi amaliyotlarni shular asosida amalga oshirishga odatlanib qolganmiz. Ro‘yxatga olish tadbirlarida yurtdoshlarimiz kutilganidan ko‘ra faollik ko‘rsatgani sababi ham shunda bo‘lsa kerak.

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish ikki bosqichda — onlayn hamda tegishli xodimlar tomonidan uyma-uy yurgan holda amalga oshirildi. Avvaliga hamyurtlarimiz census.stat.uz maxsus axborot tizimi orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tdi. Unda jami aholining 82,3 foizi ishtirok etdi va bu MDH davlatlari orasida o‘ziga xos rekord natija sifatida qayd etildi. Ikkinchi bosqichda esa “mahalla yettilligi”ning 55 mingdan ortiq xodimi har bir xonadonga kirib, tegishli ma‘lumotlarni maxsus planshetlar orqali yagona elektron tizimga kiritib bordi. Ro‘yxatga olish jarayoni davomida call-markaz orqali kuniga 2 mingdan ortiq murojaat kelib tushgani ham aholining tadbirda katta qiziqish bilan ishtirok etganini ko‘rsatadi.

Mutasaddilarning aytishicha, tadbir avvalida aholining 20 foizi onlayn ro‘yxatdan o‘tishi hisob-kitob qilingan. Ammo kutilmaganda bu ko‘rsatkich ancha baland bo‘lib, onlayn ro‘yxatdan o‘tish ko‘rsatkichi 82,3 foizga yetgan. Natijada ro‘yxatga olish tadbirlari xarajatlarini ham sezilarli qisqarishiga erishilgan.

— Dastlabki xarajatlar 140 milliard so‘m atrofida hisoblangan edi, — deydi Behzod Hamroyev. — Biroq aholining internetdan faol foydalanishi hamda katta qismi onlayn ro‘yxatdan o‘tgani xarajatlarni sezilarli kamaytirdi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, bir kishini ro‘yxatga olish uchun sarflangan xarajat 0,12 dollarni tashkil etdi. Jami xarajetni hisoblaganda, bir necha barobar tejalganini ko‘rish mumkin. Bu keyingi yillarda O‘zbekistonda raqamlashtirish ko‘rsatkichi ortib borayotgani, odamlarning elektron platformalar, internet tarmog‘idan foydalanish darajasi ancha yuqorilganini ko‘rsatadi. Shu bois, ro‘yxatga olish jarayonlari to‘liq raqamlashtirilib, tariximizda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan va qamrovi bo‘yicha eng yirik tadbirlardan biri bo‘ldi.

Buni xorijlik mutaxassislar ham e‘tirof etmoqda. BMT Aholishunoslik jamg‘armasining O‘zbekistondagi doimiy vakili Nigina Abboszodaning ta‘kidlashicha, jahon tajribasida odatda aholini ro‘yxatga olish tadbirlari uchun xarajatlar kishi boshiga kamida 3 dollar, o‘rtacha 5 dollardan to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston amaliyotida ham shunday hisob-kitob qilingan. Biroq amalda xarajatlar sezilarli tejalib, bu borada yuqori samaradorlikka erishilgan.

Jarayonga tayyorgarlik ko‘rishdan tortib, uni o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish bosqichlarining barida xalqaro ekspertlar

doimiy ishtirok etmoqda. Boisi, bunday yirik tadbir xalqaro maydonda ham o‘ziga xos amaliyot hisoblanadi. Qolaversa, ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilishda xalqaro standartlarni qo‘llash nihoyatda muhim.

Bunda aholi bilan birga qishloq xo‘jaligi ham qamrab olingani, ayniqsa, ahamiyatli. Odatda ushbu ikkita yo‘nalishni bir vaqtda ro‘yxatdan o‘tkazish juda katta tadbir bo‘lib, jahon amaliyotida sanoqli davlatlar tajribasidagina kuzatiladi. O‘zbekiston bu borada o‘ziga xos tajriba yarata olgani va ro‘yxatga olish muvaffaqiyatli o‘tgani xalqaro miqyosda e‘tirof etilayotgani boisi shunda.

Ro‘yxatga olish natijalarida avvalgi raqamlar joriy ma‘lumotlardan muayyan darajada farq qilishi tabiiy holat. Chunki shu vaqtgacha aholi soni demografik hisob-kitoblar asosida, boshqa ma‘lumotlar esa asosan hisobot topshirish orqali shakllantirilgan. Qolaversa, O‘zbekiston amaliyotida oxirgi ro‘yxatga olish tadbiri 1989-yilda o‘tkazilgan, oradagi vaqt esa ancha katta. Bu real natijalar borasidagi sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ammo ro‘yxatga olishdan maqsad raqamni o‘zgartirish emas, balki uni aniqlashtirishdir.

Dastlabki natijalarga ko‘ra, mamlakatimiz aholisi soni ayni paytda 39 milliondan ko‘proq ekani buning isboti. Ko‘rsatilishicha, O‘zbekiston aholisi soni 1897-yildagidan qariyb o‘n barobar, 1989-yildagidan esa ikki barobar oshgan.

Odatda bu kabi statistik ma‘lumotlar odamlar uchun qiziq bo‘libgina qolmay, muayyan davrga oid qaydlar, demografik va boshqa ko‘rsatkichlarning umumiy manzarasini ko‘rsatib beradigan asosiy omil hisoblanadi. Ularning aniq, shaffof va ishonchli bo‘lishi esa bevosita mamlakat taraqqiyoti, aholi farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari kelgusida demografik o‘zgarishlarni tahlil etish, fuqarolarning hududlar kesimida joylashuvini baholash, infratuzilmaga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, yashash sharoitlari va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha manzilli qarorlar qabul qilish va tegishli tahlillarni amalga oshirish imkonini beradi.

O‘yxatga olish natijalariga oid raqamlarni esa yurtdoshlarimiz elektron platformalar orqali kuzatib borishlari mumkin.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Inson qadri uchun

Bugungi zamonaviy dunyoda yo‘l xo‘jaligi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, transport yo‘nalishlari, umuman, butun yo‘l infratuzilmasi holati aholi kayfiyatiga, qolaversa, tovar aylanmasi, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi hamda xavfsizlik darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Rivojlangan yo‘l tarmog‘i barqaror o‘sishning asosidir. Zero, u hududlar integratsiyasini ta‘minlaydi, logistika jarayonlari samaradorligini oshiradi hamda fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Yo‘l xo‘jaligini rivojlantirish iqtisodiyot, ijtimoiy infratuzilma, transport tizimi va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda sifatlari yo‘llar tashish xarajatlarini kamaytiradi, yuk yetkazib berish tezligini oshiradi hamda kichik va o‘rta biznes faoliyatini rag‘batlantiradi.

Yana bir muhim jihat. Ijtimoiy sohada ham qulay transport tizimi aholiga ta‘lim, tibbiyot va mehnat bozoriga teng imkoniyat yaratadi. Shuningdek, sohaga zamonaviy boshqaruv tizimlari, “aqli” svetoforlar va raqamli monitoring platformalari joriy etilishi yo‘llardagi yuklamani kamaytirib, o‘tkazuvchanlikni oshiradi.

Xalqaro miqyosda esa rivojlangan yo‘l infratuzilmasi tranzit imkoniyatlarini kengaytirib, xorijiy hamkorlarni jalb etadi va mamlakatning global transport yo‘laklariga integratsiyasini kuchaytiradi.

Masalan, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapurda yo‘l qurilishida raqamli yechimlar va innovatsion usullar faol tatbiq etib kelinmoqda.

Ammo yaqin o‘tmishimizda yurtimizdagi yo‘llar nafaqat masofani bosib o‘tishga, balki



IQTISODIY O‘SISHNING MUHIM DRAYVERI

nosozi infratuzilma sabab yuzaga kelgan mashhaqqatlarga sarflandi. Vaqt eng bebaho ne‘mat, tiklab bo‘lmas resurs. Biroq yomon yo‘llar millionlab insonlarning bebaho soatlarini o‘g‘irladi.

Eng yomoni, zamonaviy va sifatlari yo‘llar yetishmasligi iqtisodiyot rivojini sekinlashtiruvchi omillardan biriga aylanib, ishlab chiqarish, logistika va xizmatlar sohasida qo‘shimcha xarajatlar, vaqt yo‘qotishlariga sabab bo‘lib keldi. Qisqasi, yo‘llarimizning ahvoli taraqqiyotning oyog‘iga tushov bo‘lib qolgan edi.

2017-yilgacha mamlakatimizda yo‘l xo‘jaligi samaradorligini cheklab kelgan qator muammolar bor edi. Yo‘llar kapital ta‘mirlarga muhtoj, infratuzilma ortib borayotgan transport oqimiga mos kelmasdi.

Rejalashtirish, monitoring va boshqaruvda zamonaviy yondashuvlarga jiddiy e‘tibor qaratilmadi. Moliyalashtirish ham cheklangan. Normativlar eskirgani hamda innovatsion texnologiyalar qo‘llanilmagani bois, ish sifati pasayib, tashish xarajatlari ortib borgan.

Bu esa logistika zanjirlari moslashuvchanligi, hududlar

“

Kelgusi yillarda 21 ming kilometr yo‘llarni qurish va ta‘mirlash, 14 ming kilometr tuproq yo‘llarni shag‘allashtirish hamda 325 ta ko‘priknini ta‘mirlash rejalashtirilgan. Bunda sohaga xorijiy ekspertlar va texnologiyalar, ilg‘or standartlar keng joriy qilinadi.

raqobatbardoshligi va xalqaro tranzit imkoniyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan.

So‘nggi yillarda yo‘l xo‘jaligini modernizatsiyalash bo‘yicha izchil va keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Yo‘llarga faqat manzilga yetaklovchi vosita emas, balki iqtisodiyot, turizm va hududiy taraqqiyotni harakatlarga keltiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi.

Bu soha ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanib, keng ko‘lamli qurilish va rekonstruksiya boshlandi. Avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, transport yo‘nalishlari hamda aylanma yo‘llarni qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha davlat dasturlari hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

Asosiysi, sohada loyihalash va sifat nazorati bo‘yicha zamonaviy standartlar joriy etildi. Yo‘l qurilishida ham innovatsion usullardan foydalanib, raqamli monitoring tizimlari va yo‘l harakatini boshqarishning intellektual yechimlari faol qo‘llanilmoqda.

Eng muhimi, yo‘llarni ilgama asoslanib, zamonaviy yondashuvlar asosida qurishga e‘tibor kuchaydi. Masalan, loyiha hujjatlarining namunaviy andozalaridan voz kechilib, har bir hududning geologik va ekologik xususiyatidan kelib chiqishga o‘tiladi.

Xalqaro transport yo‘laklari kengayib, mamlakatning tranzit salohiyati mustahkamlanib, hududlararo transport

aloqalari sifat jihatidan yaxshilanmoqda. Joylarda yangi infratuzilma obyektlari barpo etilib, logistika markazlari kengaytirildi. Yo‘l tarmog‘ini uzoq muddatli rivojlantirish amaliyoti joriy qilindi.

Xususan, oxirgi uch yilda avtoyo‘l sohasiga qariyb 40 trillion so‘m ajratilib, 63 ming kilometr yo‘lda qurilish va ta‘mirlash ishlari bajarildi. Sohaga xorijdan jalb qilinayotgan mablag‘lar 3 barobar oshib, 2025-yilda 1,2 milliard dollarga yetdi. Zamonaviy turdagi qoplamalar ishlab chiqilib, yo‘llarning xizmat muddati 1,5 barobar oshirildi.

Mavjud umumiy foydalanishdagi va ichki yo‘llar hamda ko‘priklarni ta‘mirlash, yangilarini barpo etishda ilg‘or tajriba va jahonda o‘zini oqlagan texnologiyalardan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Kelgusi yillarda 21 ming kilometr yo‘llarni qurish va ta‘mirlash, 14 ming kilometr tuproq yo‘llarni shag‘allashtirish hamda 325 ta ko‘priknini ta‘mirlash rejalashtirilgan. Bunda sohaga xorijiy ekspertlar va texnologiyalar, ilg‘or standartlar keng joriy qilinadi.

Bugun yangi yo‘llarning 61 foizini, “Tashabbusli budget” doirasida esa ichki

yo‘llarning 92 foizini xususiy sektor qurmoqda. Uzoq yillar davlat monopoliyasida bo‘lgan yo‘llarni saqlash ishlari ham bosqichma-bosqich xususiy sheriklikka berilmoqda.

Bu ishlar kengaytirilib, joriy yilda 3 ming kilometr, 2030-yilga borib esa 6,3 ming kilometr yo‘lni saqlashga tadbirkorlarni jalb qilish rejalashtirilgan.

Shu yilning o‘zida 28 ta xizmat elektron shaklga o‘tkaziladi, intellektual transport tizimi joriy etiladi va 7 ta yangi elektron platforma ishlab chiqiladi.

Bu boradagi ishlarning sifat jihatidan yaxshilanishi mamlakatimiz rahbarining doimiy e‘tiborida. Zero, transport infratuzilmasi iqtisodiyot tarmoqlarini o‘zaro bog‘lash, hududlar salohiyatini to‘liq ishga solish, aholi va biznes uchun qulaylik yaratishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, avtomobil yo‘llari, aviatsiya, logistika va xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Joriy yil 26-may kuni transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha bo‘lib o‘tgan taqdimotda ham bu borada muhim vazifalar belgilandi.

Unda Toshkent — Samarqand muqobil avtomobil yo‘lini qurish loyihasi ko‘rib chiqildi. Uning uzunligi 282 kilometr bo‘lib, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarini bog‘laydi. Loyiha doirasida 12 ta transport yechimi, 60 ta tunnelli o‘tish joyi, 91 ta ko‘priklar, 16 ta yo‘l o‘tkazgich, 258 ta drenaj inshooti va intellektual transport tizimini joriy etish ko‘zda tutilgan. Shuningdek,

12 ta terminal, yo‘l bo‘yi infratuzilmasi va vazn o‘lchash tizimi shakll qilinadi.

Albatta, bunday keng ko‘lamli loyihalar millionlab yo‘l harakat ishtirokchilarining kundalik faoliyatida aks etib, yangi transport ekotizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ahamiyatlisi, bunday tashabbuslar birinchi galda aholi farovonligini oshirishga qaratilib, yo‘l xo‘jaligini iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga aylantirish hamda O‘zbekistonning xalqaro transport tarmog‘idagi o‘mini yanada mustahkamlashga yo‘naltirilgan.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Baxtiyor BERDIALIYEV,
Kriminologiya tadqiqot instituti
boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori

Virtual olamdagi haqiqiy tahdid

So'nggi yillarda mamlakatimizda shiddatli raqamlashtirish islohotlari amalga oshirildi. Bank-moliya, davlat xizmatlari ko'rsatish, soliq va bojxona tizimlari to'liq raqamli relslarga o'tkazildi. Bugun yurtdoshlarimiz uydan chiqmay turib, yuzlab turdagi davlat xizmatlaridan foydalanmoqda, soniyalar ichida moliyaviy operatsiyalarni bajarmoqda. Bu, shubhasiz, inson omilini kamaytirish va qadrini ulug'lash, aholining vaqti va mablag'ini tejash yo'lidagi beqiyos qulaylikdir. Biroq global tarqaqiyot va axborot texnologiyalarining bunday yuksalishi o'z ortidan jiddiy transformatsiyalarni ham boshlab keldi. Eng achinarlisi, jinoyatchilik dunyosi mazkur qulayliklardan g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanishga urinmoqda. Bugun an'anaviy o'g'rilik, talonchilik yoki yuzma-yuz sodir etiladigan firibgarlik o'rinni virtual makondagi, geosiyosiy chegaralarni tan olmaydigan "ko'rinmas hujumlar" egallamoqda. Endilikda jinoyatchilar qurol yoki kuch bilan emas, balki algoritmlar, soxta havolalar va ruhiy bosim usullari bilan qurollangan.

Ayni shu omil tufayli BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyi odil sudlov komissiyasining yaqinda Vena shahrida bo'lib o'tgan 35-sessiyasida kiberjinoyatchilik va raqamli tahdidlar chegara bilmas global balo sifatida alohida tilga olindi. Dunyoning eng rivojlangan davlatlari ham ushbu "raqamli vabo"ga qarshi yakkama-yakka kurashishga ojizlik qilayotganini ushbu anjumanda tan oldi.

Mamlakatimiz joriy yilda ilk bor ushbu nufuzli tuzilmaga to'laqonli a'zo bo'lib kirdi. O'zbekiston delegatsiyasi xalqaro minbardan turib mazkur transmilliy xavfga qarshi ochiq muloqot, global tajriba almashinuvi va tezkor hamkorlik da'vatini ilgari surdi.

Nega firibgarlar tuzog'iga tushyapmiz?

Xo'sh, nima uchun kiberfiribgarlik geografiyasi va ko'lami bu qadar kengayib bormoqda?

Birinchidan, aholining, ayniqsa, raqamli olamga endigina qadam qo'yayotgan yoshlar va zamonaviy texnologiyalardan birmuncha uzoq bo'lgan kekxa avlod vakillarining raqamli savodxonligi, ya'ni "raqamli gigiyena" qoidalarini yetarlicha bilmasligidir. Bugungi kunda ko'pchilik virtual olamni faqatgina ijtimoiy tarmoqlar va "ko'ngilochi maskan" sifatida ko'radi, biroq u yerdagi xavf-xatarlarni anglab yetmaydi. Eng oddiy, ammo hayotiy xavfsizlik qoidasi — bank kartasining maxfiy ma'lumotlari, PIN kodni yoki mobil telefonga SMS xabaroma orqali kelgan bir martalik tasdiqlash kodlarini hech kimga, hatto o'zini bank xodimi deb tanishtirgan shaxslarga ham aytmaslik kerakligini anglab yetmaslik achinarli oqibatlariga olib kelmog'da. Jinoyatchilar odamlarning soddaligi, ishonuvchanligi yoki vaziyatni to'g'ri baholav olmasligidan ustalik bilan foydalanib, yillar davomida peshona teri bilan yiqqan oilaviy jamg'armalarini soniyalar ichida ko'lga kiritmoqda.

Ikkinchidan, virtual olamdagi firibgarlar ko'layotgan "ijtimoiy muhandislik" usullari kun sayin murakkablashib, inson psixologiyasiga chuqur kirib borayotganidir. Bugungi kun jinoyatchilari nafaqat texnik dasturlarni, balki inson tuyg'ularini ham mahorat bilan "chippa soluvchi" o'ziga xos manipulyatorlarga aylandi. Ular o'zini "bank xavfsizlik xizmati xodimi", "huquq-tartibot organi vakili" yoki "davlat idorasi mas'uli" sifatida tanishtirib, puxta o'ylanagan ssenariylar asosida ish ko'rmog'da. Jinoyatchilar fuqarolarning eng nozik tuyg'ularini — to'satdan paydo bo'lgan qo'rquv va hayajonni, masalan, "hisobingizdan pul o'g'irlanmoqda", "yaqiningiz qonunbuzarlik

Eshik qoqmay kirayotgan xavfdan qay tarzda himoyalalanamiz?

Bugun insoniyat tamadduni texnologik taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilmoqda. Sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya, global tarmoq hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, bu shiddatli jarayon insoniyat oldiga ilgari kuzatilmagan yangi tahdid va xavflarni ham ko'ndalang qo'yimoqda. Bugun eng katta xavf uyimiz darvozalaridan emas, balki qo'limizdagi mitti gadjetlar ekranini — virtual olam orqali kirib kelayotgani achchiq haqiqat. Anglaganingizdek, gap global muammoga aylanib ulgurgan kiberjinoyatchilik va raqamli firibgarlik haqida bormoqda.

ustida qo'lga olindi" kabi soxta vahimalar orqali yoki aksincha, oson daromad topishga bo'lgan intilishni, ya'ni soxta onlayn yutuqli o'yinlar, davlat nomidan beriladigan soxta kompensatsiya yoki subsidiya va dalari orqali mahorat bilan boshqarmoqda. Bunday psixologik bosim ostida qolgan inson o'zi sezmaganda holda mantiqiy fikrlash qobiliyatini yo'qotadi va o'z qo'li bilan bor-budini firibgarlarga topshiradi. Bu esa kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda faqat texnik to'siqlar emas, balki aholi o'rtasida kuchli psixologik hushyorlik va ogohlilikni shakllantirish nechog'liq zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, shiddat bilan rivojlanayotgan sun'iy intellekt (SI) imkoniyatlaridan g'arazli va jinoyi maqsadlarda foydalanish ko'lami kengaymoqda. Texnologik inqilob mahsuli bo'lgan bu tizim bugun firibgarlar qo'lida insoniyatga qarshi xavfli qurolga aylanmoqda. Xususan, dipfake (Deepfake) texnologiyalari yordamida insonlarning raqamli qiyofasi, yuz harakatlari va ovozi yuqori aniqlikda soxtalashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. Endilikda firibgarlar internet va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilgan bir necha soniyalik oddiy audio yoki videomaterial orqali istalgan insonning ovozini mukammal ko'chirib olmoqda. Bugun farzandingiz, ota-onangiz yoki yaqin do'stingiz qiyofasida va uning ovozi bilan qo'ng'iroq qilib, "og'ir vaziyatga tushib qolgan"ni aytib, pul so'rash holatlari uzoq kelajakdagi prognoz emas, kundalik hayotimizda uchrayotgan achchiq va dahshatli voqeelikka aylanib ulgurdi. Sun'iy intellekt orqali sodir etilayotgan bunday virtual jinoyatlar insonlarni nafaqat moddiy jihatdan xonavayron qilmoqda, balki odamlar o'rtasidagi eng oliy tuyg'u — bir-biriga ishonch va yaqinlik munosabatlariga ham raxna solmoqda. Bu esa raqamli makonda har qanday axborot va vizual dalilni bir necha bor tekshirish, texnik va huquqiy "raqamli qalqon" tizimini yaratish davrning eng kechiktirib bo'lmaz talabi ekanidan dalolat beradi.



Ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlar

Kiberjinoyatchilik faqatgina qaysidir fuqaro yoki tadbirkorning muayyan miqdordagi mablag'i yo'qolishi bilan cheklanadigan oddiy huquqbuzarlik emas. Uning jamiyat, davlat va millat kelajagiga yetkazayotgan zarari tizimli xususiyatga ega bo'lib, oqibatlari ancha chuqur va xavflidir. Jumladan, raqamli firibgarlar tomonidan o'zlashtirilayotgan milliardlab, trillionlab mablag' rasmiy pul aylanmasidan chiqib, yashirin iqtisodiyot rivojiga xizmat qilmoqda. Eng achinarlisi, bu mablag'ning katta qismi turli kriptoaktivlar va virtual hamyonlar orqali xorijga, transmilliy jinoyi guruhlar qo'lga chiqib ketadi. Bu esa moliyaviy barqarorlikka putur yetkazib, ichki bozordagi pul-kredit siyosatiga, investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat va xalq boyligining bunday nazoratsiz chiqib ketishi milliy xavfsizlik darajasidagi muammodir.

Shuningdek, kiberhujumlar kuchaygan sari jamiyatda o'ziga xos "ishonch inqirozi" yuzaga

kelmoqda. Fuqarolarda bank va zamonaviy raqamli xizmatlarga, elektron to'lov vositalariga va hatto davlatning himoya tizimlariga nisbatan shubha va ishonchsizlik kayfiyati paydo bo'lyapti. Insonlarning texnologiyalardan qo'rqa boshlashi mamlakatning raqamli kelajagini, "raqamli iqtisodiyot" strategiyasini sekinlashtiruvchi eng katta to'siq. Chunki raqamli makon xavfsiz bo'lmasa, u yerda hech qachon barqaror iqtisodiy o'sish bo'lmaydi.

Muammoning eng og'irqli va dahshatli nuqtasi tirik insonlar taqdiridir. Firibgarlar tuzog'iga tushib, bor-budidan ayrilgan, ularning aldovi bilan o'z nomiga katta miqdordagi onlayn kreditlar rasmiylashtirib qo'yilgan oddiy fuqarolar bugun og'ir moliyaviy va ruhiy bosim ostida qolmoqda. Buning oqibatida jamiyatda chuqur ruhiy tushkunlik, oilaviy nizolar, mustahkam oilalar parchalanishi va ajrashishlar soni ortmoqda. Hatto chorasizlikdan, qarzar yukini ko'tara olmay, suiqaqd holatigacha borilayotgani bu xavfga qarshi butun jamiyat bo'lib, bong urib kurashish fursati allaqachon kelganidan dalolat beradi.

Oldini olish mexanizmlari: "raqamli immunitet" shart

O'zbekistonda qonun ustuvorligi va inson qadriini ulug'lash bosh maqsad ekan, ushbu global xavfga qarshi tizimli, zanjirli hamkorlik mexanizmini yaratishimiz shart. Bu borada quyidagi chora-tadbirlarni jadallashtirish lozim: — maktagacha ta'limdan tortib, maktab, oliyog'ohlar va "mahallabay" tizimgacha ijtimoiy profilaktika subyektlari ishtirokida "mediasavodxonlik va kibexavfsizlik" soatlarini majburiy joriy etish zarur. Inson virtual havola (link)ni bosishdan oldin unda shubha hissi uyg'onishi kerak.

— banklar sun'iy intellekt yordamida shubhali va notipik tranzaksiyalarni avtomatik ravishda bloklash tizimini yanada mukammallashtirishi



zarur. Ayniqsa, bir necha daqiqacha ichida onlayn kredit olib, uni boshqa hisobga o'tkazish amaliyotlariga qat'iy to'siqlar qo'yilishi zarur.

— jinoyatchilar chegara bilmagani bois, Markaziy Osiyo va jahon hamjamiyati miqyosida tezkor axborot almashinuvi, kiberjinoyatchilarni ekstraditsiya qilish va raqamli dalillarni tan olish bo'yicha xalqaro huquqiy bazani kuchaytirish lozim. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, tinchlik va xavfsizlik — barqaror taraqqiyotning bosh garovi. Bugun "xavfsizlik" tushunchasi faqat sarhadlarimiz daxlsizligi bilan o'chanmaydi. Har bir fuqaroning raqamli dunyodagi xavfsizligi milliy xavfsizligimizning ajralmas bo'lagidir. Shunday ekan, virtual olamda hushyorlik va mas'uliyati yo'qotmaslik, zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri va xavfsiz foydalanish madaniyatini yuksaltirish nafaqat davlat idoralari, balki har bir insonning vijdon amri va fuqarolik burchiga aylanishi shart.

Oliy attestatsiya komissiyasi Fanlar akademiyasi huzurida mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yurita boshladi. Muhim jihat shundaki, endi ilmiy daraja berish jarayoni bevosita akademik muhit bilan integratsiyalashmoqda. Agar avvalgi tizimda ma'muriy boshqaruv elementlari kuchli bo'lgan bo'lsa, yangi tizimda akademik mustaqillik va professional baholash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.



Davlatimiz rahbarining 2026-yil 26-maydagi "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni sohada yangi davrni boshlab berayotgan muhim huquqiy hujjattir. Binobarin, ushbu farmon nafaqat mavjud tizimni takomillashtirish, balki ilmiy daraja berish, doktorantura faoliyati, ilmiy kengashlar mas'uliyati va akademik halollikni ta'minlash bo'yicha mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etishni ko'zda tutmoqda.

ILMIY KADRLARNI TAYYORLASHDA QANDAY O'ZGARISHLAR KUTILMOQDA?



Bahodir JOVLIYEV,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Mustaqillik va erkinlik mas'uliyatni oshirib, formallikka chek qo'yadi

Amaldagi oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash hamda attestatsiyadan o'tkazish tizimi salkam o'n yilga yaqin muddat mobaynida muayyan ijobiy natijalar berdi. Jumladan, doktorantura institutlari kengaydi, ilmiy izlanuvchilikka qiziqish kuchaydi, moddiy-texnik bazalar yangilandi, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy faollik oshdi.

Bunday ijobiy o'zgarishlarni yana davom ettirish mumkin. Biroq vaqt o'tishi bilan tizimda qator muammolar ham yuzaga chiqqani haqiqat. Xususan, bugun ochiqlik va shaffoflik, ilmiy-ijodiy erkinlikka ustuvorlik berilayotgan bir davrda ortiqcha byurokratik jarayonlar, hujjatbozlik ko'pligi, ilmiy kengashlar faoliyatidagi ayrim nomuvofiqliklar, ilmiy tadqiqotlar va real iqtisodiy ehtiyojlar o'rtasidagi bog'liqlik to'liq ta'minlanmagani sohada chuqur islohotlarni amalga oshirish ehtiyojini yaqqol namoyon etdi.

Shu nuqtayi nazardan, yangi farmondan asosiy maqsad mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun raqobatbardosh, innovatsion fikrlaydigan va zamonaviy tadqiqot metodologiyasini egallagan yangi avlod olimlarini kamolotga yetkazishdan iborat. Bunda amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklarni bir necha yirik yo'nalishga ajratish mumkin.

Eng avvalo, Oliy attestatsiya komissiyasi Fanlar akademiyasi huzurida mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yurita boshladi. Muhim jihat shundaki, endi ilmiy daraja berish jarayoni bevosita akademik muhit bilan integratsiyalashmoqda. Agar avvalgi tizimda ma'muriy boshqaruv elementlari kuchli bo'lgan bo'lsa, yangi tizimda akademik mustaqillik va professional baholash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bunda olimlarning dissertatsiya mavzusi bo'yicha e'lon qilayotgan maqola va tezislarning ilmiy va amaliy ahamiyati, nufuzli ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olinishi hamda fanning real yechimiga xizmat qilayotgani muhim mezon sifatida baholalanmoqda.

Yangi tartib-tamoyilning eng muhim jihatlaridan yana biri ilmiy daraja olish jarayonining soddalashtirishidir. Bunda 2027-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi bir necha tartib, ya'ni chet tili bo'yicha malakaviy imtihon (mustaqil izlanuvchilardan tashqari), OAK tomonidan dissertatsiya mavzularini ro'yxatdan o'tkazish, dissertatsiya himoyasi haqida alohida e'lon berish, dissertatsiyani yetakchi tashkilotda muhokama qilish, olingan ilmiy natijalar amaliyoti to'g'risida xulosa olish kabi ko'proq formal ahamiyatga ega tartiblar bekor qilinmoqda. Bu o'zgarishlar avvalgi tizimda ko'p vaqt va mablag' talab qilgan jarayonlar qisqarishiga xizmat qilishi tabiiy.

Yana bir yangilik: avvalgi tizimda hujjatlarning katta qismi qog'oz shaklida yuritilgan holda avtorreferatlarni chop etish, ko'p nusxada tarqatish, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalar bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun dissertatsiya natijalari yuzasidan monografiya e'lon qilish, dissertatsiyani ko'plab bosqichlarda ekspertizadan o'tkazish kabi qo'shimcha yig'ilishlar va ortiqcha xarajat talab qiluvchi rasmiyatchiliklarga ham chek qo'yilmoqda.

Farmonga muvofiq, attestatsiya jarayoni to'liq raqamlashmoqda. Bunda ilmiy tadqiqotchilarning doktoranturaga qabul qilinishidan boshlab dissertatsiya himoyasigacha bo'lgan jarayonda inson omili ishtiroki cheklanib, barcha bosqichda shaffoflikka e'tibor qaratilmoqda. Bu esa korruptsiyaviy xavflarni qisqartirib, izlanuvchilar uchun qulay ilmiy-ijodiy muhit yaratishga xizmat



qiladi. Ularning ortiqcha byurokratik to'siqlarga duch kelmashini kafolatlaydi. Eng muhimi, raqamli platforma orqali dissertatsiyalarni qabul qilish, monitoringdan o'tkazish va baholash tizimi xalqaro tajribalarga asosan tashkil etilib, tizimli yo'lga qo'yiladi. Bunda tadqiqotchi o'z ilmiy ishini barcha ekspertiza jarayonini shaffof tarzda hamma qatori ochiq tizimda kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

E'tiborlisi, endi mazkur jarayonda dissertatsiya ekspertizasi sifati, plagiatni aniqlash, qabul qilingan qarorlarning asosiligi uchun bevosita ilmiy kengashlar javobgar. Avvalgi tizimda esa dissertatsiya joylardagi oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotlar huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarda tayyorlangan bo'lsa-da, asosiy mas'uliyat OAK zimmasida deb qaralar edi. Holbuki, ushbu jarayonda hamisha ham obyektivlik va xolislikni ta'minlashning imkoniyati bo'lmaydi tabiiy edi. Zero, bunda faqat rasmiylashtirilgan hujjatlar me'yoriy-texnik ekspertizadan o'tkazilardi. Bu esa ayrim kengashlar faoliyatidagi sustkashlik yoki o'zibo'larchilik holatini yuzaga keltirish ehtimolini oshirardi.

Yangi tizimda esa ilmiy kengashlar mustaqilligi kengayishi asosida mas'uliyati va javobgarligi ham oshmoqda. Endilikda shaffof monitoring natijalari asosida samaradorligi past kengashlarga nisbatan rais va kotiblarini chetlashtirish, kengashni tugatish, yangi kengash tashkil qilishni cheklash kabi choralar qo'llanishi belgilandi. Bu holat ilmiy kengashlarning formal emas, balki haqiqiy ekspert institutlariga aylanishiga xizmat qilishi tabiiy. Binobarin, Oliy attestatsiya komissiyasi istalgan attestatsiya ishini tanlov asosida tekshirib, asoslangan xatoliklari uchun ilmiy kengash ma'qullagan qarorni bekor qilish vakolatiga egaligini saqlab qolmoqda.



Ustuvor sohalar uchun maxsus qo'llab-quvvatlov tizimi

Shubhasiz, hech qaysi fan yoki ilmiy yo'nalishni ikkinchi darajali deb bo'lmaydi. Har bir soha va fan o'z o'rnida muhim hamda dolzarb. Ammo barcha sohani bir vaqtda teng rivojlantirib bo'lmagan singari ayni davr va vaziyatda eng talab yuqori sohalariga ustuvorlik berilsa, jamiyatning ehtiyoji va talabi o'z vaqtida yangi sohalar rivojiga ham imkon yaratishi bor gap.

Shu nuqtayi nazardan, farmonda mamlakatning strategik rivojlanishi uchun muhim sohalar belgilangani — ijobiy tendensiya. Ya'ni sun'iy intellekt, qayta tiklanuvchi energiya, tibbiyot, oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslari, yangi materiallar, seysmologiya bugun yurtimiz iqtisodiyoti va istiqbol uchun muhim o'rinni tutishini inkor qilib bo'lmaydi. Shu bois, ushbu yo'nalishlarda tahsil olayotgan doktorantlar uchun stipendiyalar 1,7 baravar oshirilayotgani bugun taraqqiyotga omil bo'layotgan sohalariga yuqori impuls berishi aniq.

Mazkur jarayonda professor-o'qituvchilarni tajribasi va mahoratiga ko'ra shogirdiga berayotgan bilimi uchun munosib rag'batlantirish tizimining yo'lga qo'yilayotgani ham faxrlanarli. Chunki ustozning shogirdi kamolotidan rag'batiga qo'shimcha moddiy manfaatdorlik belgilanishi mehnatning qadr topishidan darak. Rag'batlantirish tartibining ham shogirdning ilm yo'lida erishajak yutug'iga bog'lanishi izlanish samarasining o'z muddatida ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

"Loyiha doirasida ilmiy daraja" va "Amaliy doktorantura (PhD)" dasturlari yangiliklari nimada?

Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlashda eng innovatsion jihatlardan biri amaliy

tadqiqot asosida "Loyiha doirasida ilmiy daraja" va "Amaliy doktorantura (PhD)" institutlarining joriy etilishidir. Avvalgi tizimda dissertatsiyalar ko'p hollarda nazariy yo'nalishga ega bo'lib, iqtisodiyotning real ehtiyojlari bilan yetarlicha bog'lanmay qolardi. Yangi yondashuvga ko'ra, tadqiqot mavzulari ustuvor ixtisosliklar bo'yicha uch yildan ko'p bo'lmagan tadqiqot loyihalari asosida ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanishi yo'lga qo'yilmoqda. Bunda doktorant loyiha bajarilayotgan tashkilotning izlanuvchisi, loyiha rahbari bir vaqtning o'zida ilmiy rahbar hisoblanadi. E'tiborlisi, "Loyiha doirasida ilmiy daraja" dasturi asosida tadqiqot o'tkazib, amaliy natijaga erishgan talabgorning ilmiy hisoboti ortiqcha ekspertizadan o'tkazilmay, ilmiy darajada tasdiqlanishi ham muhim yengilliklardir.

"Amaliy doktorantura (PhD)" dasturi asosida o'tkaziladigan tadqiqotlarda ham ta'lim tashkilotlari va sanoat korxonalari o'rtasida uzviy hamkorlik o'rnatilib, dissertatsiya mavzusi bevosita sanoat korxonasi talabidan kelib chiqib belgilanadi. Bunda tadqiqot loyihasi sanoat hamkori bilan birga moliyalashtiriladi. Natijada korxonalar ilmiy jarayonning ishtirokchisiga aylanadi, tadqiqot natijalari amaliyotga to'g'ridan to'g'ri joriy etiladi. Bu model Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi ilmiy yuqori ko'targan davlatlar tajribasiga yaqin bo'lib, ushbu mamlakatlar rivojida katta ahamiyat kasb etgan.

Shunga ko'ra, tadqiqotlarning aniq bir amaliy loyiha doirasida ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq holda tashkil etilishi ham fanning real hayot va mavjud muammo yechimiga turtki berishi aniq. Bunda hatto

tadbirkorlik subyektlarining ham ishtirokiga e'tibor qaratilayotgani va ularning loyihadagi ishtirokiga ko'ra foyda solig'ida imtiyozlar berilayotgani e'tiborlidir. Bu bilan dissertatsiya ishlari real iqtisodiy yoki sanoat muammosining ilmiy-amaliy yechim topishiga xizmat qilishi barobarida olimlik rutbasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Akademik halollik va sifat nazorati — muhim mezon

So'nggi yillarda dunyo miqyosida akademik halollik masalasi muhim mavzulardan biriga aylandi. O'zbekistonda ham xalqaro bazalarda chop etilayotgan maqolalar soni oshib borayotgan bir paytda tadqiqot sifatiga talablar kuchaymoqda. Shu munosabat bilan olimlarning yagona raqamli profilini yaratish, ilmiy etika standartlarini takomillashtirish, doimiy monitoring mexanizmlarini joriy qilish jarayonlariga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa dissertatsiyalar sifatida va amaliy samaradorligini oshirish, plagiat va ilmiy manipulyatsiyalarning oldini olishda muhim omil.

Inson farzandining quvonchidan, yutuqlari va kamolotidan quvvat oladi, kelajagiga umid bog'laydi. Bunda esa yurt osmonining musaffoligi, elning farovonligi va albatta, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, salomatligi hamda ilm-fanning rivojlanishi eng adolati mezonidir. Demak, ilm-fan yo'lidagi har bir bosqich, har bir yangilanish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bunda, eng avvalo, davlat va jamiyat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygani, istiqbol uchun yanada mustahkam asos yaratilgani anglanadi. Zero, ilm-fan ahli jamiyatni tebratuvchi, unga quvvat beruvchi katta kuch.

Shu ma'noda, mazkur islohotlar natijasida ilm-fan sohasida natijaga yo'naltirilgan, xalqaro standartlarga mos, shaffof va raqobatbardosh attestatsiya tizimi shakllangan holda mamlakatning intellektual kapitali yanada yuksalishi aniq.



KATTA YO‘LNING BOSHLANISHI

CHO‘QQIDA CHARX URGAN SOR BO‘LGIN, BOLAM!

(Eldor Shomurodovga)

Eldor, sen el uchun yor bo‘lgin, bolam,
Cho‘qqida charx urgan sor bo‘lgin, bolam!
Jahon maydonida to‘plaring uchdi,
O‘zbekning baxtiga bor bo‘lgin, bolam!

Bizni bilmaganlar bilganin ko‘rdik,
Bag‘rini pichoqsiz tilganin ko‘rdik.
Ko‘z ochib nogahon bayrog‘imizning
Samoda hilpirab turganin ko‘rdik!

Biz yutdik, g‘oliblar safida bormiz,
Baxti kulib boqqan tengsiz diyormiz.
Abbosning bo‘yiga bo‘ylasholmagan
Raqiblar qoshida mardonavormiz!

Bir kun Sohobqiron pandi bilingay,
Adolat bayrog‘i ko‘kka ilingay.
Yangi O‘zbekiston yaratgan bog‘lar
Sening g‘alabangga tuhfa qilingay

Quchoq och, jar solgin Jarqo‘rg‘oningda,
Jasorat qaynasin mudom qoningda.
Dunyo darvozasin zabt etgan chog‘ing,
Ronaldo, bosh egib qolsin yoningda!

Axtamquli

chiroyli goli sifatida e’tirof etilgani milliy futbolimiz uchun o‘ziga xos yutuqdir. Bunday e’tirof O‘zbekiston futbolchilari eng yirik maydonlarda ham yuksak individual mahoratini namoyish eta olishini butun dunyoga ko‘rsatdi desak, adashmaymiz.

— Barcha futbolchilar jahon chempionati maydonida oxirgi daqiqagacha bor kuchi va imkoniyatini ishga soldi. Natija ko‘ngildagidek bo‘lmadi, buning uchun, albatta, muxlislarimizdan uzr so‘raymiz, — dedi terma jamoamiz sardori Eldor Shomurodov. — Shu bilan birga, bu mundial O‘zbekiston futbolni uchun juda katta maktab, butun mamlakatimiz uchun esa muhim yutuq bo‘ldi deb o‘layman. Futbol tufayli xalqimiz bir tanu bir jon bo‘ldi, millionlab yurtdoshlarimiz bitta maqsad, bitta orzu atrofida jipslashdi. Ana shu birdamlik, xalqimizning ishonchi va qo‘llab-quvvatlashi biz uchun eng katta kuch bo‘ldi. Biz bu ishonchini qadrlaymiz va kelgusida muxlislarimizni yanada ko‘proq xursand qilish uchun bor kuchimiz bilan ishlashda davom etamiz.

Shunday ekan, milliy terma jamoamizning jahon chempionatidagi ilk ishtiroki yakunlangan bo‘lsa-da, aslida milliy futbolimiz uchun yangi bosqich endi boshlandi. Jahon chempionatidagi debutytimiz esa millionlab yoshlar qalbidagi yangi orzularni uyg‘otdi, futbol bilan shug‘ullanish istagini yanada kuchaytirdi, yurtimizda ushbu sport turining nafuzi va ta’sirini yangi bosqichga olib chiqdi. Eng muhimi, xalqimiz o‘z jamoasiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamladi. Ishonch bor joyda intilish bo‘ladi, intilish bor joyda esa taraqqiyot davom etadi. Demak, mundialda boshlangan tarix hali o‘zining eng yorqin sahifalarini yozishga ulgurmagan. Oldinda O‘zbekiston futbolini bundan-da ulkan za’falar sari yetaklaydigan yangi marralar kutmoqda. Ishonamizki, bu — hali katta yo‘lning boshlanishi, xolos!

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Inson uzoq kutgan orzusiga yetishgan mahal hayajonni yoxud boshqa biror sababmi bir oz dovdirashi, shu lahzalar uchun reja qilgan ayrim ishlari yodidan faromush bo‘lib, g‘animat onlarning qanday o‘tganini goh sezib-sezmay qolishi bor gap. Butun xalqimiz so‘nggi bir necha kunlar ichida O‘zbekiston milliy terma jamoasining futbol bo‘yicha jahon chempionatidagi ilk ishtirokini tomosha qila turib faxru xavotir, ko‘z yoshiyu hayratdan iborat his-tuyg‘ular og‘ushida ana shunday hayajonli lahzalarda yashadi.

Bu kunlar, shubhasiz, xalqimiz xotirasida yangi davrning boshlanishi, uzoq yillik orzular ro‘yobi va albatta, kelajak sari tashlangan dadil qadam sifatida muhrlandi. Dunyoning eng nufuzli futbol musobaqasida ilk bor O‘zbekiston bayrog‘i hilpiragani, madhiyamiz yangragani, futbolchilarimiz jahon futbolining eng yirik sahnasida mamlakatimiz sharafiga mardonavor himoya qilgani milliy sportimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Toshkent xalqaro aeroportida mundialdagi ishtirokini yakunlab, vatanimizga qaytib kelgan charm to‘p ustalarimizni mutasaddilar, futbolchilarning oila a‘zolari, keng jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda muxlislar ishtirokida kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Unda so‘zga chiqqanlar ushbu tarixiy ishtirok yurtimizda sportga, xususan, futbolga qaratilayotgan ulkan e’tibor samarasi ekanini yana bir bor qayd etib, mundial kunlari futbol butun xalqni yagona tuyg‘u atrofida birlashtirgan ulkan ma’naviy hodisaga aylanganini alohida qayd etdi.

Darhaqiqat, yurtimizning turli hududlarida, dunyoning qaysi burchagida yashashidan qat’i nazar, vatandoshlarimiz bir vaqtda bitta jamoaga muxlislik qildi, har bir vaziyatni hayajon bilan kuzatdi. Markaziy Osiyodagi qardosh xalqlar, turkiy davlatlar jamoatchiligi ham O‘zbekiston terma jamoasini chin dildan qo‘llab-quvvatladilar. Futbol maydonida boshlangan ana shu birdamlik tuyg‘usi xalqlarni bir-biriga yanada yaqinlashtiradigan, o‘zaro ishonch va do‘stlikni

mustahkamlaydigan muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Jahon chempionati har qanday jamoa uchun o‘ziga xos sinov maydoni sanaladi. Bu yerda har bir o‘yin alohida yondashuvni talab qiladi, birgina kichik epizod hammasini hal qilib qo‘yishi mumkin. O‘zbekiston milliy terma jamoasi ham AQSH va Meksika maydonlarida o‘tgan bahslarda aynan shunday muhitni boshdan kechirdi. FIFA reytingida dunyoning yetakchi jamoalari qatoridan o‘rin olgan Portugaliya va Kolumbiya, tarkibida Yevropaning nufuzli klublarida to‘p surayotgan futbolchilar jamlangan Kongo DRga qarshi o‘yinlar jamoamiz uchun katta tajriba maktabi bo‘ldi.

Prezidentimiz 30-iyun kuni mamlakatimiz yoshlari bilan uchrashuvda O‘zbekiston milliy terma jamoasining futbol bo‘yicha jahon chempionatidagi ishtirokiga to‘xtalib o‘tar ekan, ayni shu jihatlarini qayd etib, jumladan, “**Milliy terma jamoamizning jahon chempionatidagi ishtiroki to‘g‘risida turli fikrlar bildirilmoqda. Lekin Vatanimiz sharafiga himoya qilgan jamoamiz a‘zolariga ortiqcha his-tuyg‘u bilan e’tiroz bildirish, ulardan ayb qidirish xalqimizga xos ish emas. Aksincha, bugun ularni qo‘llab-quvvatlash, ruhini ko‘tarish har qachongidan ham muhim**”, deya ta’kidladi.

Katta g‘alabalar hali oldinda ekan, buning uchun futbolni rivojlantirishga yanada keng sharoitlar yaratilishi, bu sohaga investitsiya ko‘paytirilishi

ta’kidlandi. Eng avvalo, bolalar futboliga e’tibor kuchaytirilib, mazkur sport umummilliy harakatga aylantiriladi. Kelasi yilning yanvarida Saudiya Arabistoni maydonlarida o‘tkaziladigan futbol bo‘yicha Osiyo kubogiga tayyorgarlik hozirdan boshlanadi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, biz jamoamizga ishonamiz va ushbu musobaqada ham butun xalqimiz bilan qo‘llab-quvvatlaymiz!

Yana bir muhim jihat. Futbolimiz tarixida jahon chempionatidagi dastlabki gollarimiz alohida voqe’lik bo‘ldi. Abbas Fayzullayev va Eldor Shomurodov tomonidan kiritilgan gollar millionlab yurtdoshlarimiz qalbidagi unutilmas quvonch uyg‘otdi. Ayniqsa, Eldor Shomurodovning Kongo DR darvozasiga yo‘llagan ajoyib zarbasi FIFA tomonidan guruh bosqichining eng

Mulohaza

Tunov kuni ancha yildan beri jimjit bo‘lib ketgan bir kursdoshim qo‘ng‘iroq qildi. Hol-ahvol so‘rashdik. “Bir shaharda yashasak-da, uzoqlashib ketdik-ku, bu yaxshimas”, deya o‘zaro ginaxonlik qildik. So‘ng u muddaoga o‘tdi:

— Uyimda so‘nggi yillarda o‘qigan 100 ga yaqin kitob yig‘ilib qolgan. Mutolaa qilib bo‘lgach, javonga qanday qo‘ygan bo‘lsam, shunday turibdi. Tursa turaveradi-da chang bosib. Hammasi yaxshi badiiy asarlar. Javonda qo‘r to‘kib turavermay, ularni kimlargadir bersam, boshqalar ham o‘qisa deb o‘ylab qoldim. Yurtdoshlarimiz ichida men kabilar ko‘p bo‘lsa kerak. “Almashib o‘qish” degan tajribani yo‘lga qo‘ymoqchiman. O‘zi bizda bunday amaliyot bormi? Nazarimda, bir paytlar shunga o‘xshash harakatlar bo‘lar edi. Keyin ko‘pchilik e’tibor bermay qo‘ydi. Shu haqda bir maqola yozsangiz yaxshi bo‘lardi.

Uning gaplaridan o‘ylanib qoldim. Kitob inson ma’naviyatini boyituvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi eng muhim manbalardan bir deyimiz. Javon ko‘p hollarda o‘qib bo‘lingan kitoblarni bironqalanda uzoq vaqt foydalanilmay turadi, turaveradi. Ana shunday vaziyatlarda kitob almashish aksiyalari manbalarning yangi o‘quvchilarni qo‘liga yetib borishiga xizmat qiladi-ku.

— Juda yaxshi o‘ylabsiz, do‘stim. Hamma ham siz aytgandek yo‘l tutsa, o‘qilgan kitoblarni boshqalar bilan almashish yo‘lga qo‘yilsa, bu aksiya aholi o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, mutolaaga qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Har bir inson yangi kitobga ega bo‘ladi va qo‘shimcha xarajat qilmay, kitobxonlik



“BIR KITOB BER – BIR KITOB OL” AKSIYASI O‘TKAZILADI

ko‘lamini kengaytiradi. Mutolaaga chanoq odamning har hafta yangi kitob sotib olishga imkoniyati yetmasligi mumkin. Mening ham oilaviy o‘qib bo‘lingan bir qancha kitobim bor. Keling, almashib o‘qish aksiyasini ikkimiz boshlab beramiz.

Dam olish kuni do‘stimiz keldi. Bir dunyo kitob tashlab, men berganlarni mashinasiga joyladi. Men u keltingan, u esa mendan olgan kitoblarni bir-bir varaqlab, subhatlashdik.

— Bu nafaqat o‘qilgan kitobxonlarni sonini oshirish, balki odamlar o‘rtasida muloqot

va hamkorlikni mustahkamlashda ham qo‘l keladi. Kitobsevarlar o‘zi o‘qigan asarlar haqida fikr almashib, bir-biriga qiziqarli adabiyotlarni tavsiya etadi. Ayniqsa, yoshlar uchun bunday aksiyalar kitob o‘qishga qiziqishni yanada kuchaytiradi.

— To‘g‘ri aytasiz. Kitob almashish aksiyasining yana bir muhim jihat — ekologik ahamiyati. Yangi kitob sotib olish o‘rniga mavjud kitoblardan samarali foydalanish orqali resurslar tejaladi va kitoblarning umri uzaytiriladi. Bu esa iste‘mol madaniyatini

oshirishga yordam beradi. O‘qib bo‘lingan kitoblarni boshqalar bilan almashish aksiyasi kitobxonlikni targ‘ib qilishning samarali usullaridan biri bo‘lib qolsa, ne ajab.

Do‘stimni kuzatib, o‘zimcha “almashib o‘qish” konsepsiyasini tuza boshladim. Aksiyani bir nechta yo‘nalishda tashkil qilish imkoni bor ekan. Masalan, maktablarda “kitob almashish kuni”ni joriy qilish mumkin. Yoki kutubxonada “Bir kitob ber — bir kitob ol” aksiyasi o‘tkaziladi. O‘quvchilar o‘zi o‘qib

bo‘lgan badiiy asarlarni olib kelib, boshqa o‘quvchilarning kitobi bilan almashtiradi. Xuddi shu ishni mahalla miqyosiga ko‘chirsa, samara yanada ortadi. Mahalla faollari aholi o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish maqsadida kitob almashish manzili belgilanadi. Turli yoshdagi kitobxonlar o‘z kitobini taqdim etadi va qiziqarli yangi asarlarni tanlab oladi.

Oliy ta’lim muassasalarida esa har bir talaba o‘qib bo‘lgan kitobini maxsus tashkil etilgan burchakka qo‘yib ketishi va o‘rniga boshqa kitob olishi mumkin. Shuningdek, onlayn kitob almashish ham juda qulay usul. Ijtimoiy tarmoqlarda kitobsevarlar guruhi tashkil qilinib, ishtirokchilar o‘qib bo‘lgan kitoblari haqida ma’lumot joylashtiradi. Qiziqqan kishilar o‘zaro bog‘lanib, kitob almashadi.

Ikki-uch yil burun bir guruh tashabbuskor yoshlar zamonaviy texnologiyalar imkoniyatidan foydalanib shu usulda bu ishga qo‘l urib ko‘rgani haqida eshitgandim. Maxsus ochilgan telegram guruhida qiziquvchilar ham ancha ekan. Viloyatlararo yetkazib berish masalasida muammo paydo bo‘lgan shekilli, bu ish to‘xtab qoldi. Xususi yetkazib beruvchilar, pochta xizmati narxlarini yoshlarning hamyoni ko‘tarmadi chog‘i. Ehtimol, uzoq hududlar orasida almashuvni ta’minlash uchun ko‘ngillilar guruhlarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Xullas, bu — qilsa bo‘ladigan ish. Faqat bir oz qunt va hafsalar kerak.

O‘n yillari avval yoshlar kitob o‘qimay qo‘ygan va bu jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi xavfi haqida bong urilgani bejiz emas. Ushbu masalaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, davlatimiz rahbarining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi. Vazirlar Mahkamasining “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari e’lon qilingan edi.

Bugun jamiyat kitobxonlikka yuz tutdi. So‘nggi yillarda kitob sifati, chop etilayotgan kitoblarni soni va savdosi oshdi. Jamoat joylarida, transportda kitobga ko‘z tikkan yoshlar, hamyurtlarimizga tez-tez duch keladigan bo‘ldik. Kutubxonalar ham gavjumlashib qoldi. Respublikamiz bo‘ylab kitob mutolaasiga undovchi, rag‘batlantiruvchi, an’anaga aylangan tadbirlar ko‘paydi. “Ma’rifatli oila”, “Yosh kitobxon”, “Kitobxon oila”, “Yuz g‘azal — yuz javohir” kabi tanlovlar o‘tkazib kelinayapti. O‘zbek tilida yangi nashr etilgan badiiy asarlar ro‘yxati, kitob do‘konlari manzili haqida ma’lumotlar berib boradigan platformalar faoliyati ancha jonlandi.

Siz bolalaringizni emas, avvalo, o‘zingizni tarbiyalang, shunda ular sizdan andoza oladi deyiladi donolar o‘g‘itida. Farzand otanasiyning kitob o‘qiyotganini ko‘rsa, unda ham kitobga mehr paydo bo‘ladi. Televizor yoki telefon oldida emas, kitob bilan o‘tkazilgan vaqt farzand tarbiyasiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jamiyat va davlatlar taraqqiyotga ma’nan yetuk, bilimli va yuksak axloqli insonlar bilan erishadi. Bularsiz iqtisodiy yuksalish ham bo‘lmaydi. Shu bois, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyati va kitobxonlik masalasi har bir davrda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Globallashuv jarayoni kuchayib, axborot maydoni chegara bilmaydigan zamonada yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash, ma’naviy olamini boyitish va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish har qachongidan ham muhim vazifaga aylanmoqda.

Prezidentimiz ilgari surgan besh muhim tashabbusdan biri ham kitobxonlik madaniyatini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitob targ‘ibotini kuchaytirishga qaratilgan. Kelajak avlodning qadriyati ilmiy bilim bilan to‘lishi uchun qilingan ishlar esa, albatta, o‘z mevasini beradi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-746.

29609 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E‘lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.